

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI
“MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI

“MADANIYAT MUASSASALARIDA IJODIY ISHLAB CHIQARISHNI
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI”
MAVZUSIDAGI
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish ta'lif yo'nalishi
bitiruvchisi 4-kurs
talabasi G'afforov Umidjon

(imzo)

Ilmiy rahbar: Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish kaferasi katta o'qtuvchisi
B.Yo'ldoshev

(imzo)

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi.Kafedra
majlisining _____ sonli bayyonnomasiga “_____” _____ 2018-yil
TOSHKENT 2018

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Xalq ijodiyoti”

fakulteti dekani

J.Mamatqosimov

“Madaniyat va san’at muassasalarini

tashkil etish va boshqarish”

kafedrasи mudiri

B.Salaydinov

“___” _____ 20___ yil

“___” _____ 20___ yil

MUNDARIJA

Kirish.....2

1-BOB Respublikamizda ijodiy jamoalar faoliyatining izchil va namunaviy yo'lga qo'yilishi

1.1. Moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish turlari, shakl va ko'rinishlari.....6

1.2. Ijodiy jamoalarda ishlab chiqarish tendinsiyalari, yangi inovatssion ko'rinishlari.....18

2-BOB Ijodiy jamoalarning ishlab chiqarishda istiqbolli reja va inovatsion g'oyalar

2.1. Madaniyat va san'at sohasida ijodiy ishlab chiqarish tendinsiyalari.....25

2.2. Respublikamizda ijodiy jamolarda ishlab chiqarish faoliyatida ijodiy yutuqlar va muommalar33

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji: Mamlakatimiz o‘zligini namoyon etishga istiqlol va hurriyat sharafi ila erishdi. Mustaqil rivojlanish ijtimoiy voqelikka aylangan hozirgi kunda barcha sohalar kabi madaniyat va san’at ijodkorlarining ijodiy va samarali faoliyati, ayniqsa ijodiy jamoalarning faoliyatiga e’tibor kuchaymoqda.

“Ijodiy ishlab chiqarish” atamasining ma’daniy boyliklarini yaratishga nisbatan ko‘rinishi ijod tushunchasini qayta idrok etishni bildiradi. Ijodiy ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqdir. Yani moddiy ishlab chiqarish maxsusli ijodiy ishlab chiqarishga xizmat qilishi mumkin. Misol uchun biz biror bir qo‘sinq yaratishda moddiy ishlab chiqarishning maxsuli bo‘lgan vositalariga murojaat qilamiz. (cholg‘u asboblari ovoz kuchaytirgich ovoz yozuvchi uskuna va x. k) Ma’daniyat maxsuloti (g‘oya qo‘sinq asar kitob ssenariyi, kompyuter o‘yini surat va x.k) Ma’lum bir bosqichlardan o‘tgach tovarga, iste’mol obektiv aylanadi.

Hozirchi bunday ana’ana va udumlarimizni targ‘ib etuvchi, madh etuvchi jamoalar faoliyatining rivojlanishiga nima sabab bo‘lmoqda manimcha, shu urinda Davlatimiz rahbarining joriy yilning 3 avgust kuni mamlakatimiz ziyorilari bilan uchrashuvdagi so‘zlarini takror takror eslagimiz keladi; Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori” ekanligidan iborat haqiqatni teran anglash har bir ijodkordan alohida g‘ayrat va mas’uliyatni talab etadi. Ana shu g‘ayrat va mas’uliyat har bir ijodkor faoliyatining muntazam unsuriga aylansa, davlatimiz rahbari qat’iy ishonch bildirganidek, “nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”¹.

¹ Sh.Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, “Xalq so‘zi”, 2017 yil 4 avgust.

Yurtboshimizning ijod ahliga katta hurmati va ixlosi majlis davomida, ayniqsa, bilindi. Ko‘pchilik shoir, adib, olim, rassom, bastakor, aktyor, rejissyor, xonanda, sozanda, muharrirlarni anchadan buyon yaxshi bilishi, faoliyati, asarlari, ijodiy imkoniyatlaridan yaxshi xabardorligi, nomlarini tutib murojaat etishi, “o‘rtada begona yo‘q”ligini ta’kidlab borishi ishtirokchilarga xush keldi. Ijodiy muhitdagi qandaydir turg‘unlik, depsinish, ba’zi tashkilotlardagi sustkashlik, loqaydlik, yuqoridaan buyruq kutib ishlash, tashabbuskorlik, tashkilotchilik yetishmasligi, tadbirbozlik, madaniyat sohasida tijoratlashuv, ma’naviyat, ma’rifatning biznesga aylanishiga yo‘l qo‘yilishining oldini olish, ayrim to‘ylarda isrofgarchilik, dabdabaga yo‘l qo‘yilayotgani, kiyinish, yurish-turishda o‘zlarga taqlid va hokazo noxush holatlar tanqidi to‘g‘ri qabul qilindi.

Tadqiqotning maqsadi: Mamlakatimiz yoshlaringning yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek farzandlarining bo‘sh vaqtlarini maroqli mazmunli va albatta samarali o‘tkazishlari uchun tanlangan har qanday ko‘rinishdagi, shakl va turlaridan qattiy nazar yoshlaring bo‘sh vaqtlarini mazmunli va maroqli o‘tkazishlari uchun ijodiy jamoalarning mexanizmini keng miqyosda o‘rganish va uning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni va rolining muhimlilik darajasini tahlil etish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifasi:

a) Ijodiy jamoalarning ish faoliyati va turli shakl va turlarini izlab topish va ularni rivojlantirish mexanizmiga oid manbalarni to‘plash va ularni o‘rganish:

b) Mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan ijodiy jamoalarni yuqori darajaga ko‘tarish va tashkil etish rivojida uchrayotgan muammosini hal qilishni aniqlash:

v) Madaniyat muassasalari faoliyati jarayonida havaskor ijodiy jamoalar orqali yoshlarni ijodga to‘la qonli a’zo etishni shakillantirishga jalp qilish:

Tadqiqotning obekti – Ijodiy jamoalarning faoliyatlarini o‘rganishda yurtimizda mavjud madaniy-ma’rifiy muassasalari, madaniyat va aholi dam olish markazlari, yoshlar ijodiyot markazlari, bolalar sport majmualari faoliyatlari va maktab, kollej, oliy o‘quv yurtlari qoshida tashkil etilgan ijodiy jamoalar foliyati qo‘l keldi.

Tadqiqotning predmeti - Ma’naviy barkamol inson tarbiyasida sharqona an’ana va qadriyatlar saqlangan holda, rivojlanib kelatgan an’anaviy, zamonaviy faoliyat olib borayotgan namunali jamoalarning rivojlanish bosqichlari ko‘zda tutilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ushbu malakaviyish jarayonning mazmuni, shakli, vosita va metodlari o‘rganib chiqildi va millatimizga xos va albatta mos bo‘lgan zaruriy mezonlarini ishlab chiqish, shu asosda respublikamiz yoshlarini ijodiy jamoalarga jalb yetish va rivojlantirish masalalar yuzasidan monitoring olib borish. Mazkur masala yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish va samaradorlik darajasini belgilash.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan Davlat dasturlari, bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, asarlari, risolasida ko‘tarilgan muammolar va ularning yechimlari haqidagi qarashlarni shakllantirishning an’anaviy va zamonaviy metodik asoslari qo‘l keldi

Tadqiqot metodlari:

- * Bitiruv Malakaviy ishga oid falsafiy, siyosiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish;
- * Malakaviy ishga oid Qiyoslash va ularni -ijodiy tahlil;
- * Mavzuga oid to‘g‘ilgan savollar yuzasidan so‘rovlar, suhbat qilish, kuzatish va so‘rovnomalar tarqatish usullari. (ilova qilinadi).

- * Ko‘rsatmalarni o‘rganish;
- * Monitoring olib borish. (turli tugarak va studiyalar, ijodiy havaskor jamoalar ish faoliyati bilan bog‘liq)

Malakaviy bitiruv ishining nazariy ahamiyati. Respublikamizda madaniyat va aholi dam olish markazlarining ishlarini tashkil qilish borasida ishlab chiqilgan dasturlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, Davlatimiz Prezidentining farmonlari, nutqlari, risolalari, madaniyat va san’at muassasalari ishlarini olib borish masalasiga oid bo‘lgan hujjatlar tadqiqotning nazariy asosi va dasturiy amali hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning strukturaviy tuzilishi

Bitiruv malakaviy ishning yoritilishi quyidagicha:

Kirish, ikki bob, to‘rt paragrif, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

1.BOB. Respublikamizda ijodiy jamolarda ishlab chiqarish faoliyatida ijodiy yutuqlar va muommalar

1.1. Moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish turli shakl va ko‘rinishlari.

Buguni kunda fan va texnika jadal sur’atlar bilan taraqqiy etayotganligi bois turli soha va yo‘nalishlarga asos solinib, katta kashfiyotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida xayotimizga yangi-yangi atamalar, nomlar va iboralar kirib kelmoqda. Ayni paytda madaniyat va san’at sohasida qo‘llanilayotgan ijodiy ishlab chiqarish iborasi ham shular jumlasidandir.

“Mazkur iborani chuqurroq o‘rganish, mazmun-mohiyatini anglash hamda u haqda kengroq tasavvurga ega bo‘lishini xozirgi davr talab etilayotganligi va uning o‘quv jarayonlarida qo‘llanilayotganligi bois, oliy ta’lim tizimiga yangi fan kiritildi”².

Xususan, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining 2-bosqich magisturatura yo‘nalishlarida Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishga doir barcha masalalar maxsus yangi fan sifatida magisturaturalarga o‘qitishdir.

**Ижод- инсоннинг янги моддий ва маънавий
неъматлар яратиш фаолияти. Унда инсон
тафаккури, хотираси, тасаввури, дикқати,
ифодаси фаол иштирок этади, бутун билими,
тажрибаси, истеъоди намаён бўлади. Олдин
бўлмаган янгиликни яратишидир**

² Azamat Haydarov. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish. G’afur Gulom nashiryot. -Toshkent-2016. 15.B

Ushbu fanni o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad-ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish mazmuni, predmeti va vazifalari, uni boshqarishning huquqiy asoslari, madaniy tadbirlarni tashkil etishni rejalashtirish, uning nazariy va tarixiy shart-sharoitlari, rejissyorlik va aktyorlik mahoratning asosiy tamoyillari, tadbirning rejisyorlik tahlili, madaniy tadbirlarni tashkil etish va saxnalashtirish rejasi, adabiy-musiqiy kompozitsiya, ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini boshqarish konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi, unda kadrlar resurslariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash, xodimlarni rag‘batlantirish va motivatsiyalash usullari, madaniyatni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari xaqida magistrantlarga zarur tushuncha va tegishli ma’lumot berishdan iborat.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: ijodiy ishlab chiqarish o‘zi nima? U o‘z ichiga nimalarniqamrab oladi? Ushbu savollarga javob berishdan oldin “ijod” nima, “ishlab chiqarish” nima, qolaversa “ijodiy ishlab chiqarish” nima ekanligini bilib olish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “ijod” va “ishlab so‘zlariga” quyidagicha ta’rif berilgan:

“IJOD- insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, ifodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namayon bo‘ladi.”³

Ijod dastlab inson tasavvurida tug‘iladi. Uni jamiyat e’tirof etsagina haqiqiy, to‘liq ijod bo‘ladi. Ijod madaniyatni boyitadi va rivojlantiradi. Uni shartli ravishda ikkiga: ilmiy va badiiy ijodga bo‘lish mumkin.

Ishlab chiqarish – jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklarni (turli iqtisodiy maxsulotlarni) yaratish jarayoni bo‘lib, u inson xayotining tabiiy sharoitiga va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat.

³ Azamat Haydarov. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish. G’afur Gulom nashiryot. -Toshkent-2016. 14.B

Ishlab chiqarishning rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish quollarining o‘zgarishi va mukammalashishidan boshlanadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi jamiyat a’zolarining faravonligini muntazam oshira borish va har tomonlama rivojlantirishga imkoniyatlar yaratadi.

Ma’lumki, jamiyat ishlab chiqarishsiz bulishi mumkin emas, zotan ishlab chiqarish kishilarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan. Ishlab chiqarish faoliyati ikki ko‘rinishda namayon bo‘ladi.

- 1)moddiy ishlab chiqarish
- 2) ma’naviy ishlab chiqarish.

“MODDIY ISHLAB CHIQARISH-jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan moddiy ne’matlarni yaratish jarayoni hisoblanadi.”⁴

Jamiyatning ma’naviy hayoti, ma’naviyat, ehtiyoj, ma’naviy ishlab chiqarish, ma’naviy o‘zlashtirish, ma’naviy munosabat, ijtimoiy ong. Jamiyatning ma’naviy hayoti deganda kishilarning ma’naviy hayoti deganda kishilarning ma’naviy ishlab chiqarish faoliyatları, uning natijalari hamda ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida shakillanadigan aloqa va munosabatlar nazarda tutilib, ishlab chiqarilgan hilma-hil qarashlar, g‘oyalar kabilardan iborat bo‘ladi.

Jamiyatning ma’naviy hayoti o‘ziga xos tarkibiy tuzilishiga ega. Uning asosiy elementlari sifatida ma’naviy faoliyat, ma’naviy ehtiyoj, ma’naviy o‘zlashtirish, ma’naviy munosabatlar nazarda tutiladi. Ma’naviy faoliyat yoki ma’naviy ishlab chiqarish inson faoliyatining muhim ko‘rinishi bo‘lib, kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan narsalarni yaratishni nazarda tutadi. Ma’naviy ishlab chiqarish insonning olamga faol munosabatini ifodalaydi.

⁴ Azamat Haydarov. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish. G’afur Gulom nashiryot. -Toshkent-2016. 15.B

Ayni vaqtda ma’naviy ishlab chiqarish o‘zining biror qator jihatlari bilan moddiy ishlab chiqarish o‘zining bir qator jihatlari bilan moddiy ishlab chiqarishdan farqlanadi. Agar moddiy ishlab chiqarish narsalar dunyosini ishlab chiqarishga, moddiy boyliklarni yaratishga qaratilgan bo‘lsa, ma’naviyat faoliyat natijalari g‘oyalar, bilimlar ma’naviy qadriyatlarning shakillanishiga olib keladi. Moddiy ishlab chiqarish kishilar hayotiga bevosita zarur narsalarni yaratishga yo‘naltirilgan holda ma’naviy ishlab chiqarish jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Moddiy ishlab chiqarish natijalari bilim ahboratlar shaklida namayon bo‘ladi. Ma’naviy ishlab chiqarish jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada takomillashib borishiga xizmat qiladi.

Ma’naviy ishlab chiqarish turli shakl va ko‘rinishlardan iborat bilimlarining shakillanishi va taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ma’naviy ishlab chiqarish ijtimoiy fikrning shakillanishiga xizmat qiladi. Bunda g‘oya, g‘oyaviylik muhim o‘rin tutadi.

Ma’naviy ishlab chiqarish olamni nazariy, ratsional bilish asosida quriladi. Ma’naviy ishlab chiqarishda ijodning ustuvorligi kuzatiladi. Ma’naviy ishlab chiqarish deganda ishlab chiqarilgan g‘oyalarni jamiyat hayotiga yoyish ham nazarda tutiladi.

Ma’naviy ishlab chiqarish jarayoni insoning uning ongini o‘stiradi boyitadi. Ayni vaqtda odamlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bilimlar, nazariyalar, badiiy obrazlar va boshqa ma’naviy qadiriyatlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ma’naviy va moddiy ishlab chivarishni aslo bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Bular yaxlit ishlab chiqarish jarayoning o‘zaro uzviy bog‘liq ikki tomni tashkil etadi.

Bu xaqida muhtaram Prezidentimiz shundy degan edi. “Insonga xos orzu intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli xayot chiqarishi uchun zarur

bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamnibamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o‘ylaymanki, o‘rinli bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan qaragnada, bozor munosabatlariga o‘tish davrida jamiyat a’zolarining o‘z saloxiyati va istidodini ro‘ybga chiqarishi uchun ularga birinchi galda teng imnkoniyat va erkinlik muhitini, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlarni yaratib berish zarur.

Ko‘rinib turibdiki, moddiy va ma’naviyay hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha , o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi.

Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z xayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog‘liqlik. Asosida ko‘rgan va rivojlantirilgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi.

Eng muximi, yurtimizda moddiy va ma’naviy jarayonlarning o‘zaro mmutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi bo‘lib hizmat qilmoqda.

Ma’naviy ishlab chiqarish jarayoning o‘zi muttasil rivojlanib boradi. Dastlab ma’naviy ishlab chiqarish halq ijodiyatiga o‘z ifodasini topgan. Aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi ma’naviy ishlab chiqarish sohalarining shakillanishi va taraqqiyotiga hizmat qilgan.

Shu asosda ma’naviy ishlab chiqish ixtisoslashib borgan. Ma’naviy ishlab chiqarish jarayoni, uning natijasida yaratilgan jamiki narsalar: axloq, til, san’at, fan jamiyat ma’naviy xayotining shakillanishi va rivojlanishiga sababchi bo‘ladi.

Ma’naviy ishlab chiqarish keng ma’noli tushuncha bo‘lib, uning jarayonida: a) obrazlar, g‘oyalar, nazariyalar yaratiladi;

b) insonning o‘zi va jamiyat takomillashb boradi.

Jamiyatning ma’naviy hayoti yuir-biriga uzviy bog‘liq jarayonlar tizimidan ibort.

Bu tizimni ma’naviy ehtiyoj-ma’naviy faoliyat-ma’naviy o‘zlashtirish tarzida ifodalash lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda jamiyatning ma’naviy hayoti ma’naviy e’htiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan, deb hisoblash lozim.

Ma’naviy e’htiyoj deganda ma’naviy qadriyatlarni yaratish va o‘zlashtirish e’htiyoji nazarda tutiladi. Inson o‘z tabiatiga ko‘ra faqat “qorin g‘ami”, “tirikchilik tashvishi“ bilangina yashay olmaydi. Unda moddiy ehtiyojdan kam ahamiyatga ega bo‘lmagan ma’naviy ehtiyoj xam bor. Bu ehtiyoj “ruh ehtiyoji” deb ham yuritiladi. Inson aqliy yetuklikka, axloqiy barkomilikka intiladi. U o‘z tabiatiga ko‘ra olamni tobora ko‘proq bila boradi, doima go‘zalikka intiladi. Bularning hammasi ma’naviy ehtiyojga taaluqli. Insoniyat jamiyati taraqqiyotining quyi bosqichlarida ma’naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan ajralmagan va kishilarning kundalik hayoti va faoliyati bilan taqozolangan. Moddiy ishlab chiqarish taraqqiyoti ma’naviy ehtiyojlar uchun dastlabki imkoniyatlarni yaratgan davrdan ehtiyojlar uchun dastlabki imkoniyatlarni yaratgan davrdan boshlab ma’naviy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali ma’naviy ehtiyojlarni qondirish imkoni yaratilgan.

“Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o‘ziga, ma’naviy qudratiga va milliy ongingin ijodiy kuchiga bog‘liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma’naviy va aqliy o‘sish ehtiyojiga g‘ov bo‘lmasligi lozim.”⁵ Ma’naviylik va ma’rafiylilik xalqimizning ko‘p asirlik tarixi davomida uning eng kuchli o‘ziga xos xususiyati bo‘lib kelgan bizning ma’naviy qadriyatlarmizni xozirga demokratik jamiyatning qadri bilan uyg‘unlashtirish keljakda yanada ravnaq topishimizning jamiyatimiz jahon xamjamiyatiga qo‘shilishining garovidir.

Tarixan ma’naviy ehtiyojar moddiy ehtijlardan keyin shakillangan lekin bundan ma’naviy e’xtiyoj moddiy e’xtiyojlardan kelib chiqadi, degan hulosaga kelish xatodir.

⁵ I.Karimov. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. – T., 1998. 147.B

Ma’naviy o‘zlashtirish deganda ma’naviy qadriyatlar bilim, til, adabiyot, san’at, ahloq normalari kabilar nazarda tutiladi. Ma’naviy ishlab chiqarish natijalari bilimlar va badiiy ijod namunalarining jamiyat xayotiga kirib borishi ma’naviy o‘zlashtirishdir. Jamiyat o‘zaro bir-biri bilan aloqa-munosabatiga kelishgan kishilar jamoasidir. Jamiyat a’zolari orasida obektiv tarzda yuzaga keladigan aloqa va munosabatlар ijtimoiy munosabatlар deb yuritiladi.

Kishilar orasidagi aloqa va munosabatlар qanchalik xilma-xil bo‘lmashin ular ikki asosiy ko‘rinishga ega: a) moddiy, iqtisodiy munosabatlар; b) Ma’naviy munosabatlarga axloqiy, siyosiy, xuquqiy, diniy, kabilarni kiritish mumkin. Moddiy iqtisodiy munosabatlар inson ongidan tashqarida unga bog‘liq bo‘lмаган xolda shakillanaldi. Ma’naviy munosabatlар ong orqali amalgalashadi va bunda jamiyatdagi g‘oyalar, ma’naviy qadriyatlar ma’naviy munosabatlarga xal qiluvchi darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy munosabatlarning o‘ziga xos ko‘rinishi-shahslararo munosabatlaridir.

Yuqoridagi fikr –mulohazalardan kelib chiqib ijodiy ishlab chiqarishga quydagicha ta’rif berish mumkin:


“IJODIY ISHLAB CHIQARISH - bu inson bilimi qobiliyati ta’savvuri va istidodi hamda tajribasiga tayangan holda yaratilgan jamiyatining yashashi va taraqqiy etish uchun zarur bo‘lgan bo‘laklarini yaratish jarayonidir. U turli xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Masalan jamiyat tomonidan tan olingan yangi bir g‘oya, ssenariy, asar, spektakil, kino, yoki teleko‘rsatuv radio eshittirish, qo‘shiq turli xil shouular va hokoza.”⁶

Ijodiy ishlab chiqarish ma’daniyat va madaniyatshunoslik satsilogiyasida keng tarqalgan tushunchalardir. Ushbu tushuncha xam zamonaviy jamiyatlarda moddiy bo‘laklar mavjudligi xususiyatini hamda ma’daniy ijod xususiyatlarini aks ettiradi.

⁶ Azamat Haydarov. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish. G’afur Gulom nashiryot. -Toshkent-2016. 19.B

Hozirga zamon jamiyatlarida g‘oyalar simolar moddiy-ma’daniy artefaktlar kabi ma’daniyat na’munalarini saqlash targ‘ib etish va ishlab chiqarish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ma’daniyat muassasalari tarmog‘i shakillanib bormoqda. Bular-muzeylar, kutubxonalar, teatrlar, televideniya, baddiy studiyalar, baddiy ijodiy, jamolari bo‘lishlari ko‘rgazma zallari kino studiyalar, ommaviy axborat vositalari va xokoza.

“Ijodiy ishlab chiqarish” atamasining ma’daniy boyliklarini yaratishga nisbatan ko‘rinishi ijod tushunchasini qayta idrok etishni bildiradi. Ijodiy ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqdir. Yani moddiy ishlab chiqarish maxsusli ijodiy ishlab chiqarishga xizmat qilishi mumkin. Misol uchun biz biror bir qo‘sish yaratishda moddiy ishlab chiqarishning maxsuli bo‘lgan vositalariga murojaat qilamiz. (cholg‘u asboblari ovoz kuchaytirgich ovoz yozuvchi uskuna va x. k) Ma’daniyat maxsuloti (g‘oya qo‘sish asar kitob ssenariyi, kompyuter o‘yini surat va x.k) Ma’lum bir bosqichlardan o‘tgach tovarga, iste’mol obektiv aylanadi.



Moddiy ishlab chiqarish bilag ijodiy ishlab chiqarishning farqli jixati shundaki, moddiy ishlab chiqarish insonning moddiy ehtiyojini qondirsa, ijodiy ishlab chiqarish uning ma’naviy ehtiyojini qondiradi.

Yevropada ijodiy ishlab chiqarish tushunchasining talqini “Ma’daniy ishlab chiqarish tushunchasi bilan bir qatorda ma’daniy sanoat, yoki ko‘plikda qo‘llaniladigan ma’daniy (yoki ijodiy) sanoatlar tushunchasi xam qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda ijodiy ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi muassalar

Bugungi kunda ijodiy ishlab chiqarishni rejalashturuvchi nazorat qiluvchi hamda ushbu faoliyatini muvofiqlantiruvchi tashkilot bu-O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari va vazirligidir.

“O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi.1998yil 26 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni imzolanib “O‘zbekteatr” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi va uning huzurida Teatr ijodkorlari uyushmasi tashkil etildi. Birlashmaning moddiy-texnik negizini mustaxkamlash, ijodkorlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish uchun “Artmadad” nomli maxsus jamg‘arma tuzilib, uni qo‘llab-quvvatlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida” gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 1998 yil 22 mayda “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 223-sonli qarori qabul qilindi.

- O‘zbek xalqining asrlar davomida avloddan-avlodga noyob meros sifatida o‘tib kelayotgan teatr va tomosha san’ati an’analarni boyitish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom hislarini oshirish;

- mamlakatimizdagи mavjud teatrlar yo‘nalishlari belgilash, yangi badiiy jamolar tuzish, boy an’analarga tayangan holda jahon andozalari darajasidagi zamonaviy milliy teatr san’ati maktabini yaratish;

- o‘z tarkibidagi ijodiy jamolarining tashkiliy, moliyaviy, moddiy- texnika masalalarni hal etish ularni, zamonaviy texnika vositalari, zarur ashyolar bilan ta’minlash;
- O‘zbekiston teatr san’atini mamlakatimizda va chet ellarda targ‘ib etish, gastrol faoliyatini uyushtirish va muvofiqlashtirish, milliy va xalqaro teatr festivallarida qatnashish;
- o‘z tarkibidagi ijodiy jamolar repertuarini shakillantirish;
- aholining teatr san’atiga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini o‘rganish maqsadida sotsiologik tadqiqotlar olib borish;
- teatr san’ati sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish.

“O‘zbeknavo” estrada birlashmasi.O‘zbekistonda mavdaniyat va san’at boshqaruvini rivojlantirish borasida izchil amalga oshirilgan yana bir muhim yangi qadamlardan biri bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 5 martda imzolangan “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasini tashkil etish haqidagi PF-1419-son Farmoni bo‘ladi. Ushbu Farmonga asosan musiqa, raqs sa’natini rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston konser ijodiy jamolarning istaklarini e’tiborga olinib, “Turkiston” saroyi va “Bahor” komplekslari, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligining ijodiy konsert tashkilotlari negizida “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.

O‘zbekiston badiiy jamolari ijodiy birlashmasi. O‘zbekiston badiiy ijodalari birlashmasida xalqimiz ardog‘idagi taniqli sanatkorlar:

O‘zbekiston badiiy jamolari ijodiy birlashmasining maxsad va vazifalari O‘zbek xalqining noyob meros sifatidagi musiqa, orkestr ijrochiligi san’atini boyitish, jaxon xallari milliy musiqa qo‘sishqchilik san’atining noyob namunalarini keng targ‘ib qilish,

Mamlakatimizning barcha hududlaridagi orkestr ijrochiligi yo‘nalishlari samaradorligini oshirish, xalqimizga estetik, zavq bag‘ishlovchi zamonaviy o‘zbek orkestr ijrochiligi yo‘nalishini rivojlantirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 16 martdagি “Kinomatografiya sohasida boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-3407-sон Farmoniga muofiq hamda O‘zbekiston Respublikai Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 17 martdagи “O‘zbekkino” milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi 126-sonli qaroriga asosan “O‘zbekkino” davlat-aksiyadorlik kompaniyasining huquqiy vorisi hisoblanib, kinematografiya sohasida vazifalarni hal etishga vakolatli davlat boshqarv organi sifatida faoliyat yuritadi.

Ijodiy ishlab chiqarishda madaniy tadbir va ijodiy kechalarining maqsadlarini shakillantirish

REJA:

1. Maqsad haqida umumiy tushuncha
2. Ijodiy kechalar maqsadini shakillantirish usullari

Maqsad-bu muddao, murod, yani u yoki bu niyatga erishmoq uchun ko‘zda tutilgan mashtarak orzu.

Oliy maqsad-bu ijodkorning o‘z g‘oyasini insonlar ongiga singdirishdan ko‘zlagan muddoasidir. Oliy maqsad rejissyorlarning xususiy fikri, shaxsiy, obektiv nuqtai nazari bo‘lib, unda o‘z oldiga qo‘ygan shaxsiy va jamiyatning ijobjiy fikrlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Stanislaviskiy dramatik matrialni pesaning g‘oyaviy ma’nosini o‘rganish jarayoniga “oliy maqsad” va “yetakchi xatti-xarakati” tushunchalarini rejisyor hamda pedagog sifatida kiritib, bu tushunchalarni har bir rol uchun yoki pesa (spektakl) uchun qo‘llash mumkinligini o‘qtiradi.

1.2. Ijodiy jamoalarda ishlab chiqarish tendinsiyalari, yangi inovatssion ko‘rinishlari

Ijodiy jamoalarda ishlab chiqarish tendinsiyalari, yangi inovatssion ko‘rinishlari qanday paydo bo‘ladi degan savolga masalan

Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatalganligining 26 yilligi munosabati bilan joriy yil 15-22 may kunlari Yaponiyada “O‘zbekiston haftaligi” bo‘lib o‘tdi. Demak, chorak asrdan ziyod turli sohalardagi hamkorlik yanada rivojlanib, o‘zaro do‘stlik rishtalari mustahkamlanib bormoqda.

“Asrlar o‘tishiga qaramay o‘zining ko‘p yillik an’analarini munosib tarzda saqlab kelayotgan Yaponiya o‘ziga xos madaniyati, betakror tili, go‘zal tabiatini bilan butun dunyoni o‘ziga rom etib kelayapti.”⁷

Ilk bor Yaponiya zaminida “O‘zbekiston haftaligi” o‘tkazildi. Bu O‘zbekiston va Yaponiya davlatlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarning yangi bosqichga ko‘targanligidan dalolat.



⁷ I.Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2011. 36.37.B



O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining Yaponiyadagi elchixonasi, Yaponiya Madaniyat agentligi va Nagoya, Osaka shaharlari meriyalari

hamkorligi bilan tashkil etilgan mazkur haftalik xalqimizning qadim tarixi va boy madaniyatini keng targ‘ib etish va bu bilan yapon jamoatchiligini diyorimizga jalb etib, mamlakatimizning turistik brendini yanada rivojlantirishga qaratilgan.



15-22 may kunlari mobaynida Yaponianing yirik shaharlari hisoblanmish Tokio, Nagoya va Osaka shahlarida keng jamoatchilikka o‘zbek san’at ustalari va yosh ijrochilar ishtirokidagi konsert dasturlari, shuningdek, ko‘hna va

navqiron diyorimizning tarovati, uning turistik salohiyati aks etgan milliy foto va amaliy san'at san'at ko'rgazmalari ham namoyish etildi.

“O‘zbekiston haftaligi”ning tantanali ochilish marosimi Tokio shahridagi “Akasaka” konsert zalida bo‘lib o‘tdi. Haftalikda O‘zbekiston xalq artistlari Munojaat Yulchiyeva, Zulayho Boyxonova, “Gavhar” raqs ansamblı hamda O‘zbekiston badiiy jamoalari ijodiy birlashmasi “Lazgi” ashula va raqs ansamblı xonandalari Rohila Ro‘zimova va Anvar Sobirov, “Surxon” guruhi va boshqalar ishtirok etishdi. Prezidentimizning 3-avgustda san’at ahliga murajatining sana’t sohasida ijodiy xamkorlik ko‘zga tashlanmayapti degan chaqirig‘iga javob deb qabul qilish mumkin lekin bu hali kam barcha ijodiy jamoalar qanday ko‘rinishidan qatiy nazar ijodning turli yo‘nalishlarida tinimsiz mehnat qilishlari kerak deb qabul qilish mumkin.

Yana bir misol Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 avgust kuni bo‘lib o‘tgan ijodkor ziyorolar bilan uchrashuvida zamonaviy qahramon obrazini yaratish ijod ahli oldidagi eng birlamchi vazifalardan biri ekani ta’kidlangan edi. O‘tgan vaqt mobaynida bu yo‘nalishda muayyan asarlar yaratildi.

O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning “Zarb” qissasi ana shunday dolzARB mavzuda yaratilgan yangi asarlardan biri, desak adashmaymiz. Ishtirokchilar asarning sodda va ravon tili, hayotiy yumorlarning o‘z o‘rnida mahorat bilan ishlatilgani, ayniqsa bolalar obrazining o‘ziga xos xarakterlarini teran anglab, o‘quvchiga yetkazib berilganini alohida e’tirof etishdi.



Mazkur asarning yaralishiga turtki bo‘lgan, bugungi zamon fidokori sifatida tanlangan obrazlar aslida Vatanimizni butun dunyoga tanitayotgan Jalon championlari ekanligi ta’kidlanib, ular haqidagi barcha qiziqarli ma’lumotlar kishini qiziqtirishi usib kelayotgan yoshlarni ruxlantirishi va vatanga bo‘lgan muxabbatni ochiq oydin ko‘rsatib o‘tganligini takidlash mumkin.

Yana bir ijod mahsuli deb qabul qilishimiz mumkin bo‘lgan Samarqand shahar hokimligi madaniyat va sport ishlari bo‘limi, Amir Temur madaniyat va aholi dam olish markazi hamda 55-sonli umumta’lim maktabi hamkorlikda madaniyat markazi qoshidagi “Xalq xori”ning tashkil etilganiga 50 yil to‘lishi munosabati bilan “Qo‘sishqa muhabbat” deb nomlangan yubiley konsertini misol qilib olish mumkin.

Kechaga xor ijrosi uchun yozilgan mashhur klassik qo‘shiqlar, ko‘pchilikga manzur bo‘lgan ijodiy dastur namoyish qilindi, bundan tashqari, Amir Temur madaniyat va aholi dam olish markazi qoshidagi badiiy havaskorlik jamoalari ushbu ijodiy guruhni unutilmas sana bilan tabriklash uchun o‘zlarining rang-barang chiqishlari bilan tadbirga kelganlarni xushnud etishlari o‘sib ijodga yangi qadam tashashga jazm qilgan ijodkor yoshlarmiz uchun yana bir ijodiy

imtihon bo‘ldi desak adashmaymiz. “Ijod va yana tinimsiz ijod yoshlarni soha bo‘yicha chiniqtiradi madaniyat va san’atga oshno qiladi”⁸.

Rus milliy markazi raisi Yuriy Ognev tabrik so‘zi bilan ochib, jamoaning ijodiy yo‘liga bir oz nazar tashladi, ular olib borayotgan yorqin ijodiy jarayon to‘g‘risida to‘lqinlanib gapirdi va jamoaga milliy markaz nomidan tayyorlangan tashakkurnomani topshirdi. To‘yga to‘yna degandek, 55-maktabning chet tili o‘qituvchisi “Esperanto” to‘garagini faol qatnashchisi Bahodir Xabibov jamoaga Anatoliy Ionesov tomonidan yozilgan bag‘ishlovnni o‘zbek tiliga tarjima qilgan holda o‘zbek va rus tillarida o‘qib berdi. Ijodiy kechada qo‘schiqchi va shoumen Marat Sadikov, mohir raqs ustasi Yodgora Narzullayeva, Alla Dukart va Anatoliy Kuznetsov dueti, 55-maktab o‘quvchisi Bobur Muhiddinov, xushovoz xonandalar Sherzod Tursunov, Salohiddin Oripov, “Do‘stlik” klubining faol ishtirokchisi Roza Shamsutdinovna Rafikovalar o‘z dasturlarni bilan ishtirok etib kelganlarda sana’t va madaniyat millat bilmasligi turli tillarda ijro mahrati va ijro uslublari borasida kelganlarga haqiqiy mahorat darsi bo‘lganligini ko‘rish mumkin bunday tadbirlar ijodiy jamolarda u xox havaskor xox professional jamoa bo‘lsin ijodiy ishlab chiqarish mahsulini tomoshabin yaxshi qabul qildimi qarasaklar chalinib olqishlar olindimi yoki bravo so‘zlari yangradimi demak ijoiy jamoada ishlab chiqarish to‘g‘ri yo‘lda bormoqda.

Amir Temur madaniyat va aholi dam olish markazi qoshida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan “Xalq xor” jamoasi, aytish mumkinki, nafaqat viloyatimizda, balki respublikamizdagi eng keksa xor jamoalaridan. Jamoaning “Xalq xor” unvonnini olganiga bu yil 50 yil to‘ldi. Ijodiy jamoa o‘zining yorqin faoliyati davomida bir necha marotiba shahar, viloyat va respublika miqiyosida o‘tgan turli ko‘rik-tanlovlarda, festivallarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan. Bu ijodiy faol jamoa, doimo izlanishda repertuariga nazar tashlasangiz, rang-barang, xor

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalqaro maqom san‘ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida»gi 6-apreldagi Qarori. 2018 yil

ijrosi uchun yozilgan klassik qo'shiqlardan tortib, zamonaviy qo'shiqlargacha mavjud. Turli yillarda davomida ijodiy jamoaga Bo'ri Komilov, Vladimir Mnatsakanov, Serkiy Kananchuk, Sergey Kanonchuk, Alla Papandakulo, Svetlana Klinkova, Nina Bobrova, Elvira Ibragimova, Sergey Kardashov, Lidiya Sidorova, Valeriy Burkovskiy, Irina Doronina, Galina Vulix, Tamara Shaxova, Shodi Maxmudov, Galina Soldatova, Yevdokiya Korniyenko, Inna Legkova, Lyudmila Popova faoliyat ko'rsatib keldilar. Bugungi kunda Toshkent Davlat konservatoriyasini tamomlagan Xusniya Sattarova ijodiy jamoaga xormeyster, Samarqand san'at bilim yurtini tamomlagan Yelena Petrenko konsertmeysterlik vazifalarida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

Hozirda jamoa a'zolarining umumiy soni 22 kishidan iborat. Turli sohalarda faoliyat ko'rsatgan, hozirda keksalik gashtini so'rayotgan nuroniy, har xil millat vakillaridan iborat turli yoshdagi insonlarni xalq qo'shiqlariga bo'lgan muhabbatgina birlashtira olgan.

Ijodiy guruhning repertuariga nazar tashlaydigan bo'lgangiz rus va o'zbek kompozitorlari yaratgan asarlar hamda jahon durdonasi bo'lgan musiqa va qo'shiqlar borligiga guvoh bo'lish mumkin. Ijodiy jamoa Samarqand shahrimizning madaniy hayotida munosib o'rni va salohiyati bor. Har qanday o'tadigan bayramlar ijodiy jamoasiz o'tmaydi. Bu Yangi yil tadbiri deysizmi, mustaqillik bayrami, "Navro'z", "Vatan himoyachilari" kuni, "Xotira va qadrlash" kuni, Shahar kuni, "Gullar bayram"larini aytib o'tish mumkin. Ijodiy jamoa har yili Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan joylarda bayramoldi xayriya tadbirlarini o'tkazishni an'anaga aylantirib bormoqda. Shunday xayriya tadbirlari maktablarda, kollejlarda, xarbiy qismlarda, mehribonlik hamda sahovat uylarida, A.P. Chexov nomida teatrda namoish qilinib kelinmoqda. Mana, 50 yildan buyon ijodiy jamoa o'z qo'shiqlari bilan san'atsevar samarqandliklarni xushnud etib kelmoqdalar.

2-BOB. Ijodiy jamoalarning ishlab chiqarishda istiqbolli reja va inovatsiion g‘oyalar

2.1. Madaniyat va san’at sohasida ijodiy ishlab chiqarish tendinsiyalari.

Ijodning yangi qirralarini izlab topish har bir madaniyat va san’at sohasidagi ijodiy guruhlarga ta’luqli ekan bu borada san’at yo‘nalishida ham yangi inovatsiyalarni kiritish, yangidan yangi g‘oyalar tashshabusi bilan mehnat qilish kerakligini yaqinda O‘zbekiston Madaniyat vazirligi tasarrufidagi “Sharq atirguli” bolalar ijod uyi hamda qator tashkilotlar hamkorligida o‘tkaziladigan festivalda Qozog‘iston, Rossiya, Turkiya, Bolgariya, Chexiya, Fransiya kabi chet davlatlardan mingga yaqin yoshlar vokal, xoreografiya, an’naviy estrada ijrochiligi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z mahoratlarini namoyish etdilar. Festivalda 10 lab yevropa va osiyo davlatlaridan kelgan yosh ijodkorlar diplom va qimmatbaho sovg‘alar uchun kurashishda, haqiqiy san’atning turli yo‘nalishlarida sahnada o‘z istidodlarini namoish etgan O‘zbekiston Madaniyat vazirligi tasarrufidagi “Sharq atirguli” bolalar ijod uyi 1-darajali diplom hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanishdilar. Manashunday yuqori darajadagi xalqaro festivallarda, dunyo ahlini lol qoldiradigan ijodiy jamoalar yetishib chiqishi kerakligi haqida O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3 avgust kuni ijodkorlar, san’at vakillari va jurnalistlar bilan o‘tkazgan uchrashuvida san’at olamidagi hozirgi ahvolni qattiq tanqid ostiga olgandi

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda madaniyat tizimini rivojlantirish bo‘yicha ham katta ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, bugungi kunda tizim faoliyatini qoniqarli baholay olmaymiz.

“Madaniyat vazirligi mutasaddilarida sustkashlik, o‘zibo‘larchilik, xotirjamlikka berilish kayfiyati davom etayotganini ta’kiklagan edilar. Bugungi kunda O‘zbekiston Madaniyat vazirligi tasarrufidagi “Sharq atirguli” bolalar

ijod uyi jamoasi prezidentimizning kuyib pishib gapirgan gaplariga javob emasmi.”⁹

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan har bitta ansamblning anig‘rog‘i ijodiy jamoalarning o‘z o‘rni va mavqeyi bor edi . Ko‘z ungimizda usha Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik Katta teatr qoshidagi “Sabo” raqs anmsambli, “Shodlik”, “Lazgi” ashula va raqs ansambllari, “Bahor” davlat raqs ansambli, “Maqom” ansambli, Toshkent viloyati Bo‘ka tumani “Dugoh” xalq ansambli, Samarqand viloyati “Shashmaqom” ansambli, “Namangan viloyati “Olvalizor gullari” xalq ashula va raqs ansambli, Surxondaryo viloyati Boysun tuman “Shalola” xalq ashula va raqs ansambli, Navoiy viloyati “Navo” ashula va raqs ansambli, “Jizzax gullari” xalq ashula va raqs ansambli, Sirdaryo viloyati “Do‘stlik”, “Yoshlik” xalq ashula va raqs ansambllari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston, Xorazm xalfachilik ijodiy jamoalarini va boshqa madaniyat uylari qoshidagi ko‘plab ansambllar qizg‘in faoliyat ko‘rsatib san’atimiz dovrug‘ini chet ellarga namoyish etib kelganligini xammamiz bilamiz.

Yana bir shunday faol havaskor jamoalardan biri Abdumurodov boshchiligidagi “Sardoba” folklor-etnografik ansambli “Farxod” MS eng yosh jamoalaridan biridir. Uning tarkibida ham pensionerlar, ham talabalar, ham o‘quvchilardir-ularning barchasi milliy an’ana va udumlarning ixlosmand va bilimdonlaridir. Bugungi kunda dolzarb bo‘lgan bu tarkibni tashkil etish tashabbusini professional, zamon bilan hamnafas bo‘lgan Farxod” MS direktori N.P.Sisoyev ko‘tarib chiqdi. Uslubiy va amaliy maslahat olish uchun Respublikadan taniqli o‘zbek milliy madaniyati bilimdonlari professor M.Jo‘rayev, bastakor T.Maxmudov, rejissyor U.Toxirovlar taklif etildi. Qisqa vaqt ichida repertuar tuzildi.

“Sardoba” ansambli yosh bo‘lsada, u butun O‘zbekistonga tanildi. Samarqand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston madaniyati va

⁹ U.Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. -T.: 2000. 75.B

sport ishlari Vazirligi yordamida Samarqand shahrida folklor-etnografik ansamblarning festival ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi, Navoiy viloyat vakillari sifatida “Sardoba” ansambli taklif etildi. Ansambl qatnashchilari chaqaloqni yo‘rgaklash, ayolni onalikka bag‘ishlash kabi udumlarni namoyish etdilar, Tomosha shunchalik chiroyli, musiqali, estetik va tabiiy chiqdiki, ular nafaqat tomoshabinlar va mutaxassislar, balki chet el mehmonlarida samimiy hayrat uyg‘otdi. Hakamlar hay’atining yakdil qaroriga muvofiq navoiylik “Sardoba” ansambliga festival ko‘rik-tanlovining Gran-prisi taqdim etildi. Bu ajoyib va ishonchli g‘alaba jamoa uchun ijodini yanada rivojlantirishda nafaqat juda yaxshi manfaat bo‘ldi, balki kelajak yutuqlar ro‘yxatida oxirgisi bo‘lib qolmadi. 2007 yil natijalariga ko‘ra, “Sardoba” ansambli “O‘zbekiston Respublikasida eng yaxshi folklor-etnografik ansambl” deb e’tirof etildi va unga O‘zbekiston madaniyat va sport ishlari Vazirligining billur kubogi va unvon sertifikati tantanali ravishda Toshkent shahrida topshirildi. 2008 yilda Qashkadaryoda o‘tkazilgan “Asrlar sadosi” Xalqaro festival laureati bo‘ldi. 2009 yil Bolgariyada bo‘lib o‘tgan Xalqaro festivalda ishtirok etdi va “Eng yaxshi folklor-etnografik ansambl” nominatsiyasida diplom oldi., 2010 yilda Janubiy Koreyada Navoiy shahrini taqdimot etdi. Unga doimo hayratli muvaffaqiyat va tomoshabinlarning mehri, hay’at a’zolarining yuqori baholari hamrohlik qildi.

Bugungi kunda “Sardoba”da 7 yoshdan tortib 78 yoshgacha bo‘lgan 35 nafar ishtirokchilar shug‘ullanib kelmoqdalar, ular orasida folklor tug‘ma iste’dodlari Turob Ochilov, Musallam Xamidova, Kamola Boqiyeva, Bobur Muhammadiyev, Muborak Adizovalar bordir. Shuhrat Saidovning jarangdor ovozi, Jamshid Tog‘ayevning ko‘p qirrali iste’dodi, Rustam Yuldashevning mahoratli jo‘rnavozligi esa har bir dasturni yangi topilmalar bilan to‘ldirib boradi. Bobokalonlarimiz xotirasi sadolarini misqollab yig‘ib va ularni o‘z ijodida aks ettiradigan “Sardoba” jamoasi yosh avlodni tarbiyalashga,

xalqimizning unutilmas qadriyat va ma’naviy boyligini tiklashga o‘z hissasini qo‘sib kelmoqda. Hozirchi biz bunday jamoalarni qo‘lda sanaymiz.

Yuqorida so‘z yuritilgan bunday ijodiy jamoalarning har biri mamlakatimizning ijtimoiy-madaniy hayotida o‘z mavqelariga ega bo‘lgan. Ansambllar dasturida xalqimizning ko‘hna aytimlari – maqom, qo‘sish, terma, yalla, lapar kabilar, milliy raqlar ijrochiligi singari musiqiy qadriyatlari asosiy o‘rin olgan bo‘lib, yangi avlodni bu boylikdan bahramand qilishga xizmat qilgan.

Xozirchi bunday ana’ana va udumlarimizni targ‘ib etuvchi, madh etuvchi jamoalar faoliyatining rivojlanishiga nima sabab bo‘lmoqda manimcha, shu urinda Davlatimiz rahbarining joriy yilning 3 avgust kuni mamlakatimiz ziyyolilari bilan uchrashuvdagi so‘zlarini takror takror eslagimiz keladi; Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori” ekanligidan iborat haqiqatni teran anglash har bir ijodkordan alohida g‘ayrat va mas’uliyatni talab etadi. Ana shu g‘ayrat va mas’uliyat har bir ijodkor faoliyatining muntazam unsuriga aylansa, davlatimiz rahbari qat’iy ishonch bildirganidek, “nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”.

Yurtboshimizning ijod ahliga katta hurmati va ixlosi majlis davomida, ayniqsa, bilindi. Ko‘pchilik shoir, adib, olim, rassom, bastakor, aktyor, rejissyor, xonanda, sozanda, muharrirlarni anchadan buyon yaxshi bilishi, faoliyati, asarlari, ijodiy imkoniyatlaridan yaxshi xabardorligi, nomlarini tutib murojaat etishi, “o‘rtada begona yo‘q”ligini ta’kidlab borishi ishtirokchilarga xush keldi.

Ijodiy muhitdagisi qandaydir turg‘unlik, depsinish, ba’zi tashkilotlardagi sustkashlik, loqaydlik, yuqoridan buyruq kutib ishlash, tashabbuskorlik, tashkilotchilik yetishmasligi, tadbirbozlik, madaniyat sohasida tijoratlashuv, ma’naviyat, ma’rifatning biznesga aylanishiga yo‘l qo‘yilishining oldini olish,

ayrim to‘ylarda isrofgarchilik, dabdabaga yo‘l qo‘yilayotgani, kiyinish, yurish-turishda o‘zlarga taqlid va hokazo noxush holatlar tanqidi to‘g‘ri qabul qilindi.

Shunday ekan xalq ashula va raqs ansamblari ham o‘z ijodiy yo‘nalishlari va hududiy xoslanganlik xususiyatlariiga ega.

Qadimdan taraqqiyot beshigi hisoblangan Xorazm o‘ziga xos an’analari, marosim va ashulalari bilan o‘zbek madaniyatida alohida o‘rin tutadi. Hozirgi kunda bizga ma’lum xalfalar asosan xalq og‘zaki ijodiga mansub qo‘shiqlarni kuylaydilar.

Xalfalar san’ati ansamblli va yakka shaklda namoyon bo‘ladi. Ansamblli xalfalar, odatda, uch ishtirokchidan tashkil topadi. Ustoz-xalfa garmon chalib ashula aytsa, ikkinchi ishtirokchi doira chalib, ashulaga jo‘r bo‘ladi. Uchinchisi esa qayroq bilan raqs tushadi.

Bunday xalfachilik ansamblari xalq dostonlari, to‘y qo‘shiqlari, yallalar, laparlar bilan o‘z repertuarlarini bezaydilar.

Maqomchilik, cholg‘u va raqs ansamblari ham alohida xususiyatlarga ega. Shu kabi O‘zbekiston hududida tashkil qilingan har bir ansambl, dasta va jamoalarning o‘ziga xosligi va mushtaraklik tomonlari bor. Mamlakatimizda ijodiy ansamblar faoliyatini yanada rivojlantirish borasida ko‘rilgan qator chora-tadbirlar samarasi o‘larоq xalq ijodiyotining namoyon bo‘lish shakllarida ham o‘zgarishlar yuzaga keldi. Endilikda bu kabi jamoalarning ijod qilishlari uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratildi, ularning ijodlarini keng targ‘ib etish hamda iste’dodlarni kashf etishga qaratilgan tanlovlarning o‘tkazilishi an’anaga aylangan.

Shu jumladan, “Mustaqillik”, “Navro‘z”, “Gul bayramlari”, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Boysun bahori”, “O‘lan va lapar” kabi tantana va sayllarda, turli tadbir va tomoshalarda, festivallarda xalq ashula va raqs ansamblarining ishtiroki katta rol o‘ynaydi. Musiqiy qadriyat va

an'analarimiz Respublika bo'ylab taralishiga katta-kichik barcha ansamblar o'z xizmatlari bilan munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Hozirgi davrga kelib, milliy raqs va ashulalar folklor jamoalari tomonidan zamon ruhiga mos holda ijodiy o'zlashtirilib, xorijiy mamlakatlarda Xalqaro festival va ko'rik-tanlovlarda hamda boshqa tadbirlar munosabati bilan katta sahnalarda ijro etilmoqda.

Bunday tadbirlar ashula va raqs ansamblari, faolklor-etnografik jamoalariining ijodini butun jahon bo'ylab targ'ib qilish uchun keng yo'l ochmoqda. Shuni aytsa kerakda ijodiy ishlab chiqarish maxsuli deb.

Bugunga kelib Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi, Xalqaro "Oltin meros", O'zbekiston Respublikasi "Tasviriy oyina" ijodiy uyushmasi va Toshkent viloyati Hokimligi hamkorligida o'tkazilgan "Maqom jamoalari va katta ashula ijrochilarining an'anaviy Respublika ko'rik-tanlovi" mazkur yo'nalishdagi jamoalar ijodini rag'batlantirish va rivojlantirish yo'lida amalga oshirilgan ulkan ishlardan biri bo'ldi, deyish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalq ijodiy merosini bugungi avlodga asilligicha yetkazib berish, milliy musiqa san'atimiz xazinalarini dunyoga tanitish kabi mas'uliyatli burch bevosita xalq ashula va raqs ansamblarining rivoji bilan uzviy bog'liq ekan, ularning ijodini har tamonlama qo'llab-quvvatlash masalasi kun tartibiga chiqadi. Shu sababdan hukumatimiz tomonidan bunday ijodiy jamoalar va hududlardagi madaniyat uylari faoliyati, ularning madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirokiga keng yo'l va imkoniyatlar bermoqda. Bugun biz yashayotgan davr madaniyatlar kurashi davri. Bunda o'z taqdiri va kelajagiga befarq bo'limgan har bir millat o'zligini saqlashga, tashqi ta'sirlar uni yemirib yuborishiga qarshi, avvalo, milliy an'analarini, otabobolaridan qadrlanib kelinadigan madaniy meroslarini yanada taraqqiy ettirishga e'tibor beradi.

Muhtaram prezidentimiz “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek, ma’naviyat o’zlikni anglashdan boshlanadi. O’zlik esa har qaysi xalqning yashash tarzida, madaniy boyliklarida, ijodiy barkamolligidadir. Xalq ashula va raqs ansamblari esa musiqiy merosimizning kelajak avlodga butun va sayqallangan holda yetib borishining asosiy sababchisidir.

Shuning uchun bu sohani rivojlantirish, ansamblar sonini ko‘paytirishga rag‘bat berish, hududlardagi iqtidorli yoshlar va ijodkorlarni jalb qilish har qachongidan muhimroq vazifa bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda bir narsani g‘urur bilan aytish mumkinki hozirgi kunda sermahsul ijod qilib kelayotgan kombinatning ishlab chiqarishlarni barpo etganda, sanoat salohiyatini rivojlantirganda, raqobatbardosh mahsulotlarning ishlab chiqarilishini ta’minlaganda NKMK rahbariyati qiyin cho‘l sharoitida bizning shaharlarimiz, korxonalarimiz, konlarimizni qurgan eng asosiy boyligimiz insonni, uning ichki va ma’naviy rivojlanishini hech vaqt unutmaydi.

Aynan shuning uchun kombinat nafaqat mamlakatga oliv sifatli mahsulotni yetkazib beradigan zamonaviy yirik ishlab chiqarish kompleksiga, balki sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat obektlarini o‘z ichiga olgan yaxshi rivojlangan ijtimoiy tarmoqqa egadir.

Hozirgi kunda “Farxod” madaniyat saroyi Navoiy kombinatining sevimli maskaniga aylangan. Mustaqillikning 25 yili mobaynida O‘zbekiston xalqlari madaniyati tubdan o‘zgardi. Uning asosiy yo‘nalishi umuminsoniy qadriyatlarini dolzarblashtirishga qaratildi. Asriy an’analarga asoslangan holda u yangi ufqlarga intildi va xalqaro hamkorlik doiralarini kengaytirdi. Aynan shu o‘zgarishlar bilan “farxodchilarning” hayoti jo‘sh urmoqda.

Bugungi kunda “Farxod” madaniyat saroyi faoliyatining ahamiyatini viloyat va hatto respublika miqyosidagina baholab bo‘lmaydi. Jamoani ng soni 90 kishidan oshmagan bo‘lsada, jamoajagi yoshlarning iste’dodlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, O‘zbekistonning osuda osmoni ostida yashovchi turli

xalqlarning madaniyatini o‘zaro boyitish borasida ulkan ishlarni amalga oshirilmoqda.

Faxr bilan shuni ta’kidlaymanki, Farxod madaniyat saroyida ham o‘tkaziladigan madaniy-ommaviy tadbirlar saviyasi, ham texnik jihozlanish va madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish tizimi orqali respublika siyosatini rejali amalga oshiradigan malakali kadrlar bilan ta’minlash borasida respublikamizda eng yaxshi madaniyat saroylaridan biriga aylangan. “Farxod”ning mingdan ziyod badiiy jamoalari ijodlarida mujassam etilgan betakror xalq kuy-qo‘shiqlari va raqslaridan, tasviriy san’at va xalq hunarmandchiligi namunalaridan o‘zining nafis “naqshini” jur’at bilan kashf etmoqdalar. Ular uni Sharq xalqlarining umumiy madaniyat matosiga mahorat bilan tikib kelmoqdalar. Ularning ijodiy boyligi butun dunyoga ochilgandir.

Mustaqillik yillarida “Farxod”ning pedagog va tarbiyalanuvchilari o‘zlarining sabot matonati va mahorati bilan Rossiya, Bolgariya, Germaniya, Ukraina, Janubiy Koreya, Polsha, Xitoy, Pokiston, Fransiya va ko‘pgina boshqa jahon mamlakatlari tomoshabinlarining yuraklarini eabt eta oldilar.

Hozirgi kunga kelib “Farxod”ning ayrim xodimlari mehnati davlat mukofotlari bilan baholangan. Madaniyat saroyi direktori N.P.Sisoyev O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, rejissyor Muhiddin Kenjayev “El yurt hurmati” ordeni, “Sonata” ansambli bosh baletmeysteri Marina Xaritonova “Shuxrat” medali bilan taqdirlandilar, yakkaxon ashulachi Sherzod Davronov va Suhrob Kenjayevlar “Nihol” mukofoti, “Shirin” ansambli yakka raqqosasi Feruza Ro‘ziyeva Zulfiya nomidagi mukofotga sazovor bo‘lganlar. Bu ulkan e’tirokdir.

2.2. Respublikamizda ijodiy jamolarda ishlab chiqarish faoliyatida ijodiy yutuqlar va muommalar

Davlat dasturining 65-bandini bajarish yuzasidan qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi “2013 – 2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 178-son qarori muhim ahamiyatga ega.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi qabul qilingan “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-son qarori hozirgi zamon talablariga mos, yangicha ish uslublarini joriy etish, jamoatchilikning ma’naviy ehtiyojlarini o‘rganish, badiiy ijodni, boshqa havaskorlik ijodiy tashabbuslarni va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo‘llab-quvvatlash, ularning dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi.

“Mazkur qarorga muvofiq bugungi kunda respublikada **jami 160 ta** madaniyat va aholi dam olish markazlarida ta’mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirilib, foydalanishga topshirildi. Markazlarni ta’mirlash va jihozlash ishlariga **96.6 mlrd. so‘m** mablag‘ sarflandi.”¹⁰

To‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini tashkil etishga oid meyoriy hujjat sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-son qarorining 2-ilova bilan tasdiqlangan **“Madaniyat va aholi dam olish markazlari to‘g‘risidagi Nizomi”**, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2014 yil 29 oktabrdagi 1113-son buyrug‘ining 2 ilovasida tasdiqlangan **“Xalq havaskorlik jamoalari”** Nizomi hamda Vazirlikning 2014 yil 7 fevraldagagi 108 son buyrug‘ining 2 ilovasi bilan hisobot hujjati sifatida tasdiqlangan va Vazirlik

¹⁰ Sh.Mirziyoyev. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, “Xalq so‘zi”, 2017 yil 4 avgust.

tizimidagi madaniyat va aholi dam olish markazlarida yuritish uchun tavsiya etilgan “**To‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini hisobga olish jurnali**” asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari Respublika xalq ijodiyoti markazi tomonidan ishlab chiqilgan “**Madaniyat va aholi dam olish markazlarida to‘garaklar tashkil etish metodikasi**” nomli uslubiy qo‘llanmani ham ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Mehnat ahli mustaqillik yillarda avlodlar tomonidan asrlar mobaynida yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyatni o‘zlashtirish ilm-fan asoslarini egallashga faol kirishdi. Ilgari o‘z talantini etarli darajada namoyish qila olmagan xalq ommasining ijodiy g‘ayrati yanada o‘sdi. Xalq orasidagi iste’dodli havaskor yigit va qizlarni tarbiya qilib, san’at etaklandi, shuningdek xalq og‘zaki ijodi, xalq san’atining eng ilg‘or an’analari bilan yangi san’at negizini mustahkamlashda ashula va raqs xalk ansamblı rahbarlarining ham ulushi bor.

Binobarin havaskorlik ashula va raqs xalq ansambollarining qiyofasini nima tashkil etadi? Uning o‘ziga xos spetsifik belgilari nimadan iborat?

Professional ashula va raqs ansamblı — havaskorlik.ansamblı, shu sababdan biz uni havaskorlik ashula va raks xalk ansamblı deb atadik. Shahar va kishloqning kalbi san’atga talpingan, go‘zallik shaydosi bo‘lgan havasmand kishilari, uning ijodkorlaridir. Ular ham mehnatdan, asosiy ishlaridan bo‘sh vaktlarida san’at bilan shug‘ulianadilar. Havaskorlik ashula va raqs ansambollarining oddiy musiqiy to‘garaklaridan farqi shundaki, ular nisbatan muntazam ishlaydi, ansambl a’zolari nisbatan barqaror va turkumli mumtoz asarlarni ijro qilishga qodir, shuningdek ularga maxstista’lim olgan va tajribali kishilar rahbarlik qiladi. Havaskorlik ashula va raqs ansamblı a’zolari: xonanda, sozanda, raqschilari ijrochilik mahoratida professional sahma madaniyati saviyasini egallashga intilishlari, biroq taqlidchilikka yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

Mahoratda havaskorlik ashula va raqs ansamblı professional ashula va raqs ansambl yo‘lidan borsa-da, repertuarda ansambl a’zolarining imkon

darajasi, xususiyati tashkiliy jihatdan undan tamomila farq qiladi.

Binobarin, havaskorlik ashula va raqs xalq ansambli qiyofasini belgilashda rcpertuar hal etuvchi rol o‘ynaydi.

Darhakikat, qaerda havaskorlik san’atiga e’tibor. ixlosmand malakali mutaxassislar ko‘p bo‘lsa, o‘sha erda ashula va raqs ansamblining ishi yaxshi, ijodi qaynoq, repertuari yangidan yangi yasarlar bilan boyib boradi.

Ashula va raqs ansamblining kelgusi istiqboli mutaxasis kadrlarni tayyorlashni ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida takomiilashtirish muammosi bilan bog‘liq bo‘lib, u millii ta’limni to‘liq isloh qilish dasturiga kiradi.

Xalq ansambli — bu iboraning o‘ziga xos tushunchasi bor. Musiqashunoslikda ko‘pgina chalkashliklar «Xalq ansambli» ma’nolarini aniq tushunmaslikdan kelib chiqadi. Shu boisdan awalo ana shu ma’nolarni aniqlab olish zarur bo‘lsa kerak.

Xalq ommasi tomonidan yaratilgan va uning og‘zaki ijodiyoti bilan chambarchas bog‘liq holda yashab kelgan o‘ziga xos cholg‘uchilar ansamblilimty adabiyotda «Sozandalar xalq ansambli» deb yuritilgan. Ma’lumki bunday sozandalar ansambli jahondagi qariyb barcha xalqlarda uchraydi. Bu ansambl tomoshalari awalida xalq orasidan etilib chiqqan qobiliyatli cholguchi biror soz ustasi tomonidan ko‘rsatilgan. Biroq keyinchaliksozandalik, xonandalik, raqschilik ishini o‘ziga kasb qilib olgan mutaxassislar — xalq sozandalari, xalq xofizlari, xalq raqschilari maydonga keladi.

Xalq ommasi orasida yaratilgan musiqa ansambli taraqqiy etib, barqaror badiiy shakl va an’analarga ega boMgan, xalq musiqasi san’ati beqiyos rivojlangan, tur va janrlar maydonga kelgan. Natijada u o‘zining dastlabki ko‘rinishidan katta fark kiluvchi mukammal san’at darajasiga ko4arilgan.

Tushunishni oydinlashtirish va chalkashlikka yo‘l qo‘ymaslik uchun qadimgi o‘zbek cholg‘isi ansamblini an’anaviy sozandalar ansambli deb, Davlat ansambollarini o‘z nomi bilan professional ashula va raqs ansambli deb, badiiy

havaskorlikdagi unvonli jamoalarni havaskorlik ashula va raqs ansambl deb atash maqsadga muvofiqdir.

Havaskorlik ashula va raqs xalq ansamblari 1960 yildan maydonga kela boshladi. Albatta bu ansamblarning bunyodga kelishi uchun badiiy havaskorlik san'ati katta taraqqiyot yo'lini bosib. o'tishga to'g'ri keldi. Boshqacha kilib aytganimizda, havaskorlik ashula va raqs xalq ansambl mustaqilligimizning sharofati, uning afzallikkari, milliy g'oya, milliy mafkura, siyosiy tantanasining mahsuli xamdajamiyatimiz taraqqiyotining barcha davrlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelgan badiiy havaskorlik harakatining quvonchli yakunidir.

Shuning uchun ham mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq yuzlab xavaskorlik to'garaklari tashkil topib, ijtimoiy xayotda juda muhim rol o'ynadi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport ishlari Vazirligining 2006 yil yakunlari bo'yicha hisobotiga ko'ra vazirlik tizimidagi klub muassasalarda 1585 ta ashula va raqs ansamblari faoliyat olib bormoqdalar.

Respublikada «Xalq» yoki «Namunali» unvonga tuyassar bo'Mgan jamoalarning aksariyati xalq san'ati an'analarini rivojlantirish hamda professional musiqa tajribalarini o'zlashtirish bo'yicha muhim yutuqlarni qo'lga kiritdi, ijodiy tajriba ortirdi va jamoatchilik e'tiborini qozondi.

Andijon viloyati Jalaquduq tumani madaniyat uyining «Navo» ashula va raqs xalq ansambl, Farg'ona viloyati Quva tumani Markaziy madaniyat uyining «Anor» ashula va raqs xalq ansambl, Uchko'prik tumani madaniyat uyining «Tanavor» ashula va raqs xalq ansambl, Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani Markazlashgan madaniyat uyining «Dilrabo» ashula va raqs ansambl, Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani madaniyat va sport ishlari bo'Mimining «Cho'l chamanı» ashula va raqs xalq ansambl, Sirdaryo viloyati Sirdaryo shahar madaniyat uyining «Yoshlik» ashula va raqs xalq ansambl, Xorazm viloyati Xiva tumani Markaziy madaniyat uyi qoshidagi «Xiva naqshlari» ashula

va raks xalq ansambli. Navoiy viloyati Karmana tumani

Markaziy madaniyat uyining «Guli» ashula va raqs xalq ansambli, Jizzax viloyati G'allaorol tumani Markaziy madaniyat uyining «Oltin boshoq» ashula va raqs xalk ansamblarining so‘nggi yillarda erishgan yutuqlari fikrimizning dalilidir.

Ashula va raqs jamoalarining repertuari ham janr, ham forma, ham mazmun e’tibori bilan boyib, ko‘rkamlashib bormoqda. Dasturlar (programmalar) g‘oyaviy va badiiy yaxlitlik kasb etib, asarlar (nomerlar) o’rtasida uzviylik hosil bo‘lmoqda, ijro madaniyati ortib, ijrochi-havaskorlarning mahorati va badiiy estetik saviyasi o‘sib, xalq orasida obro'-e’tibori ortmokda. Bu ishda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport ishlari Vazirligi tomonidan uyuştirib kelinayotgan «Diyor ohanglari», ashula va raqs jamoalarining Respublika ko‘rik-tanlovi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Millionlab tomoshabinlar rohatlanib zavq- shavq bilan ko‘rgan, tinglagan ushbu ko‘rik va musobaqalar havaskor san’atchilarning chinakam bayramiga, havaskorlik san’atining buyuk namoyishiga aylandi, shu bilan birga xalkimiz iste’dodlarga boy. qaynar bulok ekanini yana bir qirra isbot qildi.

Ma’lumki, 2006 yilda o’tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport ishlari Vazirligi O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda «Diyor ohanglari» Respublika telefestivali badiiy havaskorlik san’ati sohasida erishgan yutuqlarni namoyish etdilar, xalq orasidan etishib chiqqan eng yaxshi sozanda, xonanda, raqschilari oynai jahonga olib chiqib, elu yurtga tanitdilar.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq — deb yozadi Prezident I. A. Karimov — ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, beba ho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi. O‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarehashmalariga uning ildizlariga qaytishdan

iborat, uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz...

Chindan ham shunday, havaskorlik san'ati milliy mafkura g'oyalaridan nur emgan milliy san'atimizning ajralmas tarkibiy qismidir. Mustaqillik yillarida Respublikamizda havaskorlik ashula va raqs ansamblarining soni ancha ko'paydi, yosh iste'dodlaming mahorati oshdi. Ular kuylagan ashula, ijro etgan kuylar, raqslar talabchan tomoshabinlarga manzur bo'lmokda. Ayniksa havaskorlik ashula va raqs jamoalarining miqdor va mahorat jihatdan o'sib borishi kishini benihoya quvontiradi.

Yurtimizda shunday bir an'ana, kayfiyat paydo bo'ldiki, muhtaram Prezidentimiz qaysi soha vakillari bilan uchrashmasin, eng avval, ularni qiyayotgan muammolar, yechimini kutayotgan masalalar, sohadagi kamchiliklarni bartaraf etishga, odilona yechim topib berishga harakat qiladilar, tahlil va tanqid orqali o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarab, vijdonan bajarishga undaydilar. Prezident ishtirokida o'tgan qator uchrashuv va tadbirdarda har birimizni yillar davomida o'ylantirib kelayotgan muammolar asta-sekin barham topayotgani, har sohada qonun va uning adolatli ijrosi sabab tartib-intizom yuzaga kelayotganidan xalqimizning boshi osmonda.

Davlatimiz rahbarining ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvida ham biz ijodkorlarning dilimizda tugun bo'lib tugilgan dardlarimizga, ijoddan tashqaridagi hayotiy muammolarimizga ham adolatli yechim topildi. Pensiya yoshidagi yoki nafaqaga chiqqan, yillar davomida katta tajriba va mahoratga ega bo'lgan yozuvchi-shoirlar necha yillik ijod va mehnat mahsuli bo'lgan asarlarini kitob holida chop ettira olmayotgani, uy-joy, shahar propiskasi sabab, hattoki adabiyotga endigina kirib kelayotgan, havas bilan qo'liga qalam olayotgan yosh ijodkorlar ham poytaxt adabiy muhitidan chiqib o'z viloyati, qishlog'iga qaytishga majbur bo'lmoqda. Hattoki nazmda yoki nasrda qalami charxlanib borayotgan, adabiyotimizning ertasi bo'lishiga ishonib turgan iste'dodli yigitlarimiz ham oila boqish, ro'zg'or tashvishi sabab pul topish ilinjida yaqin va

uzoq o‘lkalarga chiqib ketishdi. Bunday og‘riqli masalalar hammamizni adabiyotimizning ertasi haqida jiddiy qayg‘urishga undaydi.

Ijodkorlarning yuragidagi, xayolidagi ana shunday tashvishlarni anglagan Prezidentimizning bu kabi muammolarni bartaraf etish, ijod ahlini qo‘llab-quvvatlashga astoydil bel bog‘lagani haqiqiy ma’naviy jasorat namunasidir.

“Kitobxon qalbini alangalatish uchun ijodkorning qalamidan o‘t sachrab turishi kerak. Uning o‘zi tushkun va umidsiz ahvolda bo‘lsa, qanday qilib ilinj bilan qo‘liga kitob olgan o‘quvchi ko‘nglini ko‘taradigan, qalbida umid chirog‘ini yoqadigan so‘zni ayta oladi? Yoki yashashga, kurashishga, maqsad tomon intilishga ilhomlantira oladi?”¹¹

Uchrashuvdagи hayajon va taassurotlar bundan buyon hech bir ijodkorni hafsalasizlik bilan qo‘liga qalam olishga qo‘ymaydi. Shu o‘rinda bir taklif aytsam. Yozuvchilar uyushmasi qoshida yagona badiiy kengash tuzilsa va bu kengash yil bo‘yi chop etiladigan kitoblar rejasini ishlab chiqsa. Taniqli yozuvchi-shoirlar bilan birga yosh ijodkorlarning katta-kichik asarlari ko‘pchilikning maslahati, taklifi va tanqidiy nigohidan o‘tgan holda kitob holida chop etilsa, qanday yaxshi bo‘lardi. Shunda adabiyotimizning badiiy saviyasini haminqadar, oldi-qochdi, g‘arib “asar”lardan asragan, iqtidorlilarni qo‘llab-quvvatlagan bo‘lamiz.

Xalqimiz ham mazmunli asarlardan bahramand bo‘lardi. Yaxshi kitob o‘quvchi didini o‘siradi, ma’naviy yuksaltiradi. Ana shunda adabiyotning ham qadri ko‘tariladi. Kitobni odamlar mehr bilan varaqlaydigan, asrab-avaylab o‘qiydigan bo‘ladi.

Adabiyotimizda, barcha ijodkorlarimiz qalbida esayotgan bahoriy epkin kabi yoqimli va hayajonli shodlik shabadalari o‘qishli va yaxshi asarlarni yozishsga ilhom bag‘ishlasin.

¹¹ Sh.To’rayev.Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va uni tashkil qilish metodikasi.”Paradigma” Toshkent-2017. 39.B

Bugungi kunda Prezident har gal biror soha vakillari bilan ko‘rishib muloqot qilgan chog‘ida, “Yozuvchi-shoirlar, ijodkorlar bilan qachon uchrasharkan?” deb so‘rardik bir-birimizdan. Chunki mamlakatimiz rahbarining adabiyotga, ijod ahliga katta e’tibor, ixlos bilan qarashini yaxshi bilardik.

Nihoyat, 2017 yilning 3-avgust kuni biz intiq kutgan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Odatda, majlisu yig‘ilishga unchalik xushi bo‘lmaydigan, mabodo biror rasmiy tadbirda qatnashsa ham biroz siqilib qoladigan ijodkorlar besh yarim soatdan ko‘proq davom etgan muloqotda vaqt hissini unutib, sehrlanganday o‘tir ekan.

Sababi Prezident tomonidan aytilgan har bir so‘z, fikr ularning yuragida aks-sado berib, ongu ruhiyatida uyg‘onish, ijodiy rag‘batni qo‘zg‘adi.

Ma’ruza davomida, hatto madaniy-ijodiy sohalarga doir kamchiliklar tilga olingan o‘rinlarda ham, Prezidentimizning ijod ahliga nisbatan mehri, hurmati yaqqol sezilib turdi. Xususan, mamlakatimizda olib borilayotgan bugungi keng ko‘lamli islohotlar, yangilanish va o‘zgarishlar jarayonida ijodkor ziyyolilarimizning o‘rni va hissasi haqida gap ketarkan, davlatimiz rahbari o‘z talabu e’tirozini nihoyatda chiroqli, zarofat bilan o‘rtaga qo‘ydi:

“Qo‘limizni ko‘ksimizga qo‘yib xolisona aytaylik: ijodkor ziyyolilarimizning bugungi faoliyati jamiyatimizni, eng avvalo, el-yurt taqdiri uchun doimo kuyunib, yonib yashaydigan, bedor qalb egalari bo‘lgan sizlarning o‘zingizni qoniqtiradimi? Adabiyot va san’atning naqadar qudratli kuchga ega ekani haqida sizdek zukko insonlar huzurida so‘z yuritishga, ochig‘ini aytsam, men biroz tortinaman. Lekin mana shunday buyuk, ilohiy kuchdan biz mamlakatimiz, el-yurtimiz ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanyapmizmi?”

Bu savollarga javobimiz aniq: yo‘q. Nega? Sababu ildizlari qayerda? Ularni topish va bartaraf etish uchun nimalar qilmog‘imiz kerak? To‘g‘ri, bu

haqda har kimning o‘z javobi, mushohadasi bor. Lekin ularning ko‘pi oxirigacha o‘ylanmagani, amaliyot bilan muqoyasa qilinmagani ham bor gap. Prezidentimiz aniq fakt va misollar keltirib, bizni bu borada chuqurroq o‘ylashga, fikrlashga, taklif berishga undadi. Eng muhimi, muammolarni ochiq-oydin aytishdan murod kimnidir yomonotliq qilish yoki jazolash emas, balki ishimizga to‘g‘anoq bo‘layotgan kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab olib, tuzatish ekanini his qildik. “Bugun biz “ijodkorlarimiz ishlamayapti”, deb sizlardan, sizlar esa “davlat yordam bermayapti”, deb bizlardan gina qilib o‘tirishimizning mavridi emas. Kelinglar, bugun o‘z oldimizga “Kim aybdor?” deb emas, “Kim nima qilishi kerak?” degan savol qo‘yaylik” degan chaqiriq ham ulug‘vor maqsadning naqadar samimiy ekaniga dalil bo‘ldi.

Adabiy istilohlar bilan aytadigan bo‘lsak, ma’ruzaning kirish va asosiy qismi ko‘proq tafakkurimizga yo‘nalib, fikrimizni qo‘zg‘agan bo‘lsa, xulosa qismi yuragimizga yo‘l ochib, his-tuyg‘ularimizga qanot bag‘ishladi. Sababi, Prezident yillar mobaynida ijodkorlarni o‘ylantirib kelayotgan juda ko‘p masalalarni tilga olib, ularga huquqiy va moliyaviy jihatdan yechim topib berdi.

Shu bois bu hayotbaxsh takliflarni ijodkorlar katta quvonch bilan, hatto o‘rinlaridan turib olqishlagan holda kutib oldilar.

Bu tashabbusu yechimlar shunchalik keng qamrovli va puxta o‘ylanganki, bu uchrashuvni faqat biz emas, davlatimiz rahbari ham uzoq tayyorgarlik ko‘rib, intiqlik bilan kutgani ayon bo‘ldi.

Uchrashuv mobaynida ma’lum qilingan, ijodkorlarni birday sevintirgan yangiliklarning har biri haqida alohida tahliliy maqola yozish kerak – ularni kichik munosabatda qamrab, umumlashtirib, baho berish imkonsiz.

Shulardan biri – boshqa hududlardan poytaxtga kelgan iste’dodli ijodkorlarni yashash uchun doimiy ro‘yxatga qo‘yish masalasi. Sir emas, bu ko‘pdan buyon biz yosh ijodkorlarni qiynab kelayotgan, ammo yechim topishiga hech kim ishonmayotgan masala edi.

Yoki eng kam ish haqining 2 barobaridan ko‘p miqdorda qalam haqi olgan ijodkorlarning pensiyasidan 50 foiz mablag‘ni ushlab qolish tartibi ba’zi mansabdorlar tomonidan joriy etilgan kaltabin tajriba deb baholangani va bu holatni qayta ko‘rish chiqish lozimligi haqidagi xulosa ham ijodkorlarni, ayniqsa, ustozlarimizni nihoyatda to‘lqinlanadirib yubordi.

Prezident bilan muloqotdan ruhlanib, ko‘kka uchguday shahd bilan chiqdik. Hamma bir-birini tabriklagan, qutlagan... Bunday qutlovlар hali-hanuz davom etyapti.

Rosti, bu kun har bir ijodkor ko‘ngliga naqsh bo‘lgan, taqvimda alohida belgilab qo‘yishga arzigulik, e’tiborli sana bo‘lib qoldi.

Bugun yosh ijodkorlar ham, ustozlar ham faqat bitta fikrda: endi shunday yuksak e’tiborga munosib ravishda ishlashimiz, ijod qilishimiz shart! Hammamiz birlashib, ijodiy quvvatimizni, salohiyatimizni yurtdoshlarimiz ma’naviyatini boyitishga, Vatanimiz taraqqiyotiga sarf qilmog‘imiz kerak. Zamon sur’ati, davr shiddatini his qilgan holda, jamiyatning eng oldingi safida bo‘lishimiz zarur. Zero, ijod ahlining bosh maslagi – yoniq yuragi bilan oldinga chiqib, boshqalarga nur, ziyo ulashishdir.

Yurtimizda muhtaram Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida har qanday shiddatu sur’atni ham shoshirib qo‘yadigan darajada jadal amalga oshirila boshlagan, istisnosiz, hayotimizning barcha sohalariga daxldor islohotlar, yangilanishlar ham, ularning natijalari ham bugun barchamizning ko‘z o‘ngimizda.

Xalq kutgan bunday shijoatli harakatlar mamlakatimiz taraqqiyotida tamoman yangi bosqich boshlanganining shahodatidir. Xalq bilan xolis muloqot qilishning ham, xalq dardini jon qulog‘i bilan tinglash va uning davosini topishning ham hadisini olgan rahbar sifatida Prezidentimiz balog‘at yoshidan o‘tgan mustaqil davlatimizning barcha boshqaruv bo‘g‘inlarini, jamiyatimizning hamma qatlamlarini, ijodkoru ishchini, qariyu yoshni, erkagu ayolni real

harakatga keltirdi, yurt ravnaqidek oliv niyat yo‘lida uyg‘oqlikka, kurashchan faoliyatga safarbar etdi.

Davlatimiz rahbarining mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvidan asosiy maqsad-muddao ham yurtimiz ijod ahlini faol harakatga chorlash, madaniyatimiz, adabiyotimiz va san’atimiz ravnaqini muntazam ta’minlash uchun qilinajak ishlar tarhini chizish, buyuk kelajagimizning madaniy-ma’naviy poydevorini mustahkamlashda davlat g‘amxo‘rligini yanada maqbullashtirishdan iborat.

Xitoy faylasufi Konfusiyning shunday bir gapi bor: “Dunyodagi har qanday xalqning aytayotgan qo‘shig‘ini keltiring, men uni eshitib, bu xalqni qanday idora etish mumkinligini aytib beraman”. Bu gapda ayovsiz va azaliy haqiqat o‘z tajassumini topgan.

Hech bir san’at, hech bir adabiyot, hech bir madaniyat hech qachon va hech qayerda odamlarning shunchaki ko‘ngil xushi, ermak uchun bo‘lgan emas.

Adabiyot va san’atda ularning sohibi bo‘lmish xalqning siyrati va sa’jiyasi, tabiatи va tafakkuri, himmatu hamiyati va badiiy taxayyuli aks etadi. Qavmning o‘zlik idroki va o‘zlik muhofazasi qudrati ham ularda namoyon bo‘ladi.

Badiiyatning bu benazir olamlari shuning uchun ham, qaysi millatga mansubligidan qat’i nazar, har qanday xalq tirikligining poydor posbonlari sifatida yashab keladi, ular xalqni bir musht o‘laroq birlashtiradigan iddaosiz kuch sifatida mamlakat ichidagi tartibotu osoyishtalik buzg‘unchilarining ham, tashqaridan bo‘ladigan tazyiqu xurujlarning ham chinakam balogardonlaridir.

Prezidentimiz mazkur uchrashuvda Madaniyat vazirligini Mudofaa vazirligi bilan taqqoslaganda, ijodkorning mustaqillik va yurt ravnaqi oldidagi farzi aynini yana bir bor ta’kidlagandek bo‘ldi, nazarimda.

Uchrashuvda ana shunday favqulodda muhim jabha bo‘lmish adabiyot va san’atdagи, ommaviy axborot vositalaridagi kattadir-kichikdir, har qanday

noqislik, qusur yoki mahoratsizlik kechirilmas hol ekanligi haqli ravishda bot-bot uqtirildi.

O'sha uchrashuvda bugungi madaniy-adabiy jarayonlardagi noxush holatlar, nomaqbul urinishlar, loqaydlik, mayda-chuyda mavzular atrofida o'ralashib qolish kabi kamchiliklar ro'yi rost aytildi.

"Shuni ham ta'kidlamoq joizki, har qanday badiiy asarda, kino bo'ladimi, teatr bo'ladimi, qo'shiq bo'ladimi, baribir, til rost va raso bo'lmog'i shart, ammo taassufki, bu boradagi oqsoqliklarni ham sezmaslik mumkin emas. Davrning o'zi tish-tirnoqli tanqidni taqozo etmoqda, tanqidning tili o'tkir, dili xolis, ko'zi ravshan bo'lsagina, uning ijodkorga manfaati bisyor bo'ladi."¹²

Prezidentimiz tomonidan bildirilgan fikrlar, taklif-tashabbuslar va aniq ko'rsatmalar, ijodkorlarga davlatimizning g'amxo'rliги borasidagi rejalarни mammuniyat bilan qabul qildilar. Olimu ijodkorlarimiz adabiyotimizning taraqqiyoti qonuniyatlarini, tilimizning takomil prinsiplarini, xalqimizning og'zaki ijodi durdonalari qa'ridagi taxayyul parvozlarining betakror chizgilarini yanada mufassal ko'rsatib berishdek ezgu ishlarni yanada ishtiyoyq bilan davom ettiradilar.

Mustaqillik yillarda keng qamrovli, tanqid va takliflarga boy, ishonchga yo'g'rilgan bunday uchrashuv bo'lmagandi. Mamlakatning Birinchi shaxsi ijodiy jamoatchilik bilan shunga o'xhash uchrashuv o'tkazganini eslolmayman. Mazkur muloqot qatnashchilarning qalbini yangi, beqiyos kuch-quvvat bilan to'ldirdi, ularda katta umidlar uyg'otdi. Har bir ijodkorda yashash va mehnat qilish ishtiyyoqi jo'sh urdi.

Biz uchun eng qimmatli va qanot bag'ishlovchi narsa Yurtboshimizning O'zbekistonda san'at hech qachon biznes bo'lishiga yo'l qo'ymasligi haqidagi so'zlari bo'ldi. Turli mamlakatlar san'atidan boxabar odam sifatida shuni

¹² Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida quramiz. Toshkent. "O'zbekiston", 2017 yil

mamnuniyat bilan aytamanki, O‘zbekiston san’atining qadim xalqona ildizlari nihoyatda pokiza, oqilona bo‘lib, chuqur insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Shuning uchun ham teatrlarimiz sahnalarida yuksak ma’naviyatdan chekinish, inson qadrini yerga urish, yuksak insoniy fazilatlarni hayvoniylar instinkt darajasiga tushirish hollari kuzatilmagani bizni g‘oyat quvontiradi.

Eng muhimi, Prezident Shavkat Mirziyoyev bugun ijodkorlar oldiga dolzarb vazifalarni qo‘yish bilan birga, shu yerning o‘zida ularning yechimini ham ko‘rsatib berdi Ayniqsa, san’at va madaniyatga daxldor oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish va ta’lim-tarbiya ishlarini rivojlantirish haqidagi taklif va mulohazalar ziyolilar tomonidan qizg‘in kutib olindi. Darhaqiqat, ijodiy oliy o‘quv yurtlariga hamisha ham tom ma’noda iste’dodlilar qabul qilinavermaydi. Ehtimol, bugun aktyorlik, rassomlik, xonandalik san’atlarida madaniyatimiz va ma’naviyatimizga zid, yoshlar tarbiyasiga aks ta’sir ko‘rsatuvchi illatlar urchiyotgani shuning natijasidir.

Mazkur uchrashuvda ijodkorlar, xususan, teatr jamoalari oldida turgan vazifalar kundek ravshan etib bayon qilindi. Bizning vazifamiz bularni yana qaytarish emas, balki bugundan boshlab mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini izlash va topishdan iborat.

Bugun O‘zbekiston, Prezidentimizning irodasi va kuchi bilan barcha yo‘nalishlarda yangilik tomon shahdam qadamlar bilan jadal ketyapti. Biz tom ma’noda ajoyib zamonda yashayapmiz. Har bir kun qalbimizga yangi orzu-umidlar olib kiriyapti. Ijodkorlarning vazifasi ana shu orzu-umidlarning alanga olishiga, niyatlar ijobat bo‘lishiga ko‘maklashishdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotilgan barcha javxalar kabi madaniyat va san'at sohasida ham ijodiy o'sishlarni ko'rish mumkin.

Ijodiy jamoalar haqida ko'plab misollar keltirish mumkin ammo ularning ijodiy faoliyatida hozirgi zamon talablarida asosiy rol o'ynayotgan mahsulotlari faqatgin respublikamiz miqiyosida kerak bo'lsa beznis shaklida ko'payib boryotganligi achinarli hol.

Madaniyat va san'at sohasida "Jamiyatni sog'lom ezgu-maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor-san'at yordamida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yuksak darajaga ko'tarish bugungi yangilanish davrida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda", - deb ta'kidlagan Birinchi Prezidentimiz I.Karimov. Shuning uchun ham madaniyat va san'at sohasi boshqaruv ishlarini takomillashtirish maqsadida tomosha san'ati an'analarini o'rganish, boyitish va targ'ib qilish, teatr san'atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnika negizini yanada mustahkamlash, islohotlarda teatr arboblarining faol ishtirokini ta'minlash, milliy va umubashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlari yaratish kabi masalalarni amalga oshirish maqsadida 1998-yil 26-martda Prezident Farmoni imzolanib "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi va uning huzurida teatr ijodkorlari uyushmasi tashkil etildi.

Teatr san'ati rivoji va sohani boshqarishning zamonaviy uslublari ko'zda tutilgan ushbu Farmonda belgilangan muhim vazifalardan yana biri "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi va uning tasarrufidagi korxona va tashkilotlar barcha turdag'i soliqlar va bojxona to'lovlaridan besh yil muddatga ozod etilganligidir. Soliqdan ozod etilishi natijasida yig'ilgan mablag'larning mamlakatimizda teatr-tomosha san'atini, ilmiy-tadqiqot va nashr ishlarini yanada rivojlantirishga, birlashmaning modiy-texnik negizini mustahkamlashga, soha ijodkorlarini ijtimoiy muhofaza qilish ishlari uchun

sarflanishi belgilangan qo‘yilganligi ham e’tiborga molik masaladir. Ijodiy jamoalarning har biri o‘z faoliyatida tinimsiz mehnat qilishlari joizdir.

O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi “O’zbekkonsert” davlat muassasasi tomonidan joriy yilning 22 sentabr kuni “Turkiston” san’at saroyida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-3022-sonli Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Milliy raqs san’atining rivojlanish tarixi, dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo’lib o’tdi. Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya sohadagi mavjud muammo va kamchiliklarni raqs san’atining yetuk mutaxassislari bilan birga muhokama qilish hamda ularga kerakli yechim topishga qaratilgan



O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri B.Sayfullayev bugungi kunda o'zbek milliy raqs san'ati o'ziga xosligini yo'qotib borayotgani, undagi muammo va kamchiliklar hal etilishi lozimligini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, raqs san'atining bir qator yetuk namoyondalari o'z fikrlari va takliflari bilan o'rtoqlashdi. O'zbekiston badiiy jamoalar ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" ashula va raqs ansambli badiiy rahbari Q.Mo'minov sohadagi kamchiliklarga alohida to'xtalib o'tdi. Konferensiyada "Raqs jamoalari va ular faoliyatiga doir mulohazalar", "Shashmaqom va milliy raqs san'ati", "Ommaviy madaniyat" va raqs san'ati", "Raqs san'atini

ilmiy o’rganish jarayonlari” hamda “Milliy raqs san’atini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyalari” muhokama qilindi.

Yaqinda Poytaxtimizdagi Respublika yosh tomoshabinlar teatrida Havaskorlik xalq teatrlarining respublika festivali boshlandi.

O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi rahbari A.Haydarov, “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi raisi A.Karimov, Respublika “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi raisi I.Latipov va boshqalar yurtimizda madaniyat va san’at an’analarini chuqur o’rganish, boyitish va targ‘ib etish, teatrlar faoliyatini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilayotganini ta’kidladi. Ayni vaqtda yurtimizda 100 dan ortiq havaskorlik teatrlari mavjud bo‘lib, ularning 70 ga yaqini unvonga ega xalq teatrlaridir. Sohadagi tizimli islohotlar o’zbek teatr san’atini har tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli professional teatrlar bilan bir qatorda havaskorlik teatrlari, teatr-studiyalar keng rivojlanib, soni yildan-yilga ortmoqda. Mazkur tarbiya o’choqlari milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy yuksak sahna asarlarini tomoshabinlarga havola etish orqali azaliy an’analarni kelajak avlodlarga yetkazish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda alohida o’ringa ega. Sohani yanada rivojlantirish, san’atkorlarning bir-biri bilan hamkorligini mustahkamlash maqsadida tashkil etilayotgan mazkur festivalda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan 13 ta havaskorlik xalq teatri ijodiy jamoasi ishtirop etmoqda. Ikki kun davom etadigan festivalda “Bolalik”, “Oq ajal”, “Shayton tamg‘a nayrangboz”,

“Osmondan tanga yoqqan kun”, “Jaholat jari”, “Hukm – o‘limga mahkum”, “Ko‘zgudagi biz, yoxud qaynonam, onam”, “Kafansiz ko‘milganlar”, “Bolajonim, jon bolam!”, “Bayram allergiyasi”, “Jondan aziz”, “G‘aflat”, “Dadajonisi, kechiring!” kabi spektakllar namoyish etiladi. Festival yakunida yo‘nalishlar bo‘yicha g‘oliblar aniqlanadi.

2018 yil 14 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagи “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash hamda oliv ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion hamkorlikni rivojlantirish, integratsiyani yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Folklor va etnografiya” kafedrasi tomonidan “Folklor va etnografiyanı rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy seminari bo‘lib o‘tdi.

Seminarni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori Go‘zal Xolikulova ochib berdi. Seminarda O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, akademik To‘ra Mirzayev “Alpomish turkumligi haqida”, “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi mudiri, professor O‘razali Toshmatov “Bolalar musiqa va san’at mакtablarida folklor musiqa asarlarni o‘rgatish masalalari”, O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori, professor Shomirza Turdimov “O‘zbek xalq qo‘shiqlarining folklor-etnografik jamoalari repertuarida tutgan o‘rni”, O‘zRFA Tarix instituti “Etnologiya va antropologiya” bo‘limi boshlig‘i, tarix fanlari doktori, professor Atxam

Ashirov “O‘zbekiston etnologiyasining dolzARB muammolari”, filologiya fanlari nomzodi Muxammadjon Qo‘shmoqov hamda Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori, professor Jabbor Eshonqulov “Folklorshunoslikning dolzARB masalalari” hamda Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy metodik markazi direktor o‘rinbosari Vaxobjon O‘razmatov “Folklor-etnografik jamoalari: muammo va yechim”, “Folklor va etnografiya” kafedrasи mudiri Oygul Axmedova “Nomoddiy madaniy merosni ta’lim tizimiga tadbiq etish masalalari” mavzularida ma’ruza qildilar.

Seminarda folklor va etnografiyanı rivojlantirishning dolzARB masalalariga qaratilgan urf – odat va marosimlarning shakllanish tarixi, Navro‘z bayrami bilan bog‘liq folklor asarlarining ma’naviy-madaniy taraqqiyotda tutgan o‘rni, o‘zbek xalq qo‘shiqlarining folklor-etnografik jamoalari repertuaridagi ahamiyati, jamoalardagi muammo va yechimlar, O‘zbekiston etnologiyasining dolzARB muammolari hamda nomoddiy madaniy merosni ta’lim tizimiga tadbiq etish kabi masalalar haqida folklorshunos, san’atshunos, etnograf olimlarining qilgan ma’ruzalarini ishtirokchilarning katta qiziqishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, seminarda akademiklar, taniqli olimlar bilan bir qatorda ko‘plab yosh mutaxassislarning ilmiy ma’ruzalar bilan ishtiroki mamlakatimizda samarali ilmiy tadqiqotlar olib borayotganligidan dalolat beradi.

Seminarda kafedra katta o‘qituvchisi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Rustam Abdullayev taniqli jurnalist Saloxiddin G‘aybullayev bilan hamkorlikda nashr ettirgan “Qorako‘ldan o‘tgan umr

karvonlari”, “Qorako‘l shevasining tarovati” kitoblarining taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi.

Malakali mutaxassislar va amaliyotchilar, ya’ni Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan “O‘zbekoyim”, “Nodirabegim” kabi xalq folklor-etnografik jamoalari hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Folklor va etnografiya” bo‘limi talabalaridan tuzilgan “E’zoz” folklor-etnografik jamoasi tomonidan namoyish etilgan ijrochilik an’analarining o‘ziga xos hududiy jihatlariga oid qiziqarli ijodiy konsert dasturi hamda Toshkent madaniyat kolleji “Folklor san’ati” kafedrasi bilan hamkorlikda “Folklor va etnografiya” bo‘limda tahsil olayotgan baxshi talabalarining ijodiy chiqishilari amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mazkur ilmiy-amaliy seminarda folklorshunoslik va etnografiyani rivojlantirishning dolzarb muammolari, nomoddiy madaniy meros va folklor ijrochiligi san’ati, etnomadaniy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodiyotini o‘rganish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarini ham belgilab olishda muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-avgustdagи 3201-sonli qarori “Madaniyat va san’at tashkilotlari, ijodiy uyishmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag’batlantirish boyicha qo’shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to’risida.”¹³

Qarorda Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari shaharlarda barpo etiladigan

¹³ Harakatlar strategiyasi va ma’naviy yuksalish. Azamat Haydarov.G’afur Gulom nashiryot.Toshkent-2018. 146-148-betlar

ko'p kvartirali arzon uylar hamda qishloq joylarda yangilangan namunaviyoyihalar asosida barpo etilayotgan arzon uy-joylarga muhtoj fuqarolar royxatini belgilangan tartibda shakllantirishda O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "O'zbekkino" Milliy agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zolari va xodimlari, jumladan, ushbu sohalardagi istedodli va istiqbolli yoshlarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojini taminlash nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagি 3212-sonli qarori "O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"¹⁴

Qarorda xalqimizning estetik talab va ehtiyojlarini har tomonlama hisobga olgan holda, zamonaviy ruhdagi badiiy yuksak asarlar yaratish, katta musiqiy asarlar, jumladan, opera, simfoniya, konsert va oratoriya kabi mumtozjanrlar rivojiga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutildi.

Qarordan qabul qilingandan so'ng yosh kompozitorlar, bastakorlar va musiqashunoslar, barcha ijrochilarning ijod bilan samarali shug'ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Hatto yosh kompozitor va bastakorlar uchun davlat grantlari belgilandi. Qolaversa chet mamlakatlarga o'qib tajriba almashib kelishlari uchun moddiy tomonidan yordamlar ko'rsatilmoqda. O'zbek bastakorlari va kompozitorlari xalqaro grantlarni qo'lga kiritmoqda va O'zbekiston bayrog'ini ko'klarga ko'tarishmoqda. Bularning barchasiga prezidentimiz tomonidan yaratilib berilayotgan shart-sharoitlar sababchidir. Musiqa san'atiga ham katta

¹⁴ Harakatlar strategiyasi va ma'nnaviy yuksalish. Azamat Haydarov. G'afur Gulom nashiryot. Toshkent-2018. 181-184-betlar

e'tibor berilgan."Faqatgina musiqa inson xarakterini shakllantirish kuchiga ega.Musiqa yordamida o'zini to'g'ri his qilishni rivojlantirishni o'rghanish mumkin"¹⁵ deb ta'kidlagan bobomiz Aristotel.

¹⁵ Commus.uz

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyunda “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori “Obod turmush yili” davlat dasturida belgilangan “Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi klub muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash orqali «Madaniyat, san’at va aholining dam olish markazlari»ni tashkil etish Davlat dasturini ishlab chiqish” to‘g‘risidagi 65-bandining ijrosini ta’minalash, aholining, ayniqsa bolalar va yoshlarning tobora oshib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish uchun zarur zamonaviy ijtimoiy-madaniy va ma’naviy-ma’rifiy muassasalar yaratish maqsadida qabul qilindi.

Yangidan tashkil etiladigan, zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari milliy an’anaviy madaniyatni saqlab qolish va o‘rganishda jamoatchilik ehtiyojlarini o‘rganish va qondirish, badiiy ijodni, boshqa havaskorlik ijodiy tashabbuslarni va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo‘llab-quvvatlash, uning mazmunli dam olishini tashkil etish borasida bugungi kunga kelib ijodiy jamoalar u professional jamoami havaskor jamoa bo‘ladimi o‘zlarining ijodiy faoliyatida tubdan o‘zgartirish qilish kerak masalasi shaxsan Davlatimiz rahbarining joriy yilning 3 avgust kuni mamlakatimiz ziyorilari bilan uchrashuvdagi so‘zlarini takror takror eslagimiz keladi; Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori” ekanligidan iborat haqiqatni teran anglash har bir ijodkordan alohida g‘ayrat va mas’uliyatni talab etadi. Ana shu g‘ayrat va mas’uliyat har bir ijodkor faoliyatining muntazam unsuriga aylansa, davlatimiz rahbari qat’iy ishonch bildirganidek, “nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”.

Shu bilan birga yana, yurtboshimizning ijod ahliga katta hurmati va ixlosi majlis davomida, ayniqsa, bilindi. Ko‘pchilik shoir, adib, olim, rassom, bastakor, aktyor, rejissyor, xonanda, sozanda, muharrirlarni anchadan buyon yaxshi bilishi, faoliyati, asarlari, ijodiy imkoniyatlaridan yaxshi xabardorligi, nomlarini tutib murojaat etishi, “o‘rtada begona yo‘q”ligini ta’kidlab borishi ishtirokchilarga xush keldi.

Yana birnarsani yoritmasdan iloji yo‘q ijod bor joyda albatta ommaviy madaniyat ham ergashada shunday ekan davlatmiz rahbarining ma’ruzasida ham bu borada fikr mulohazalar yuritildi va ommaviy madaniyat masalasida ham judaadolatli gaplar o‘rtaga tashlandi. Ommaviy madaniyatning urchib borishiga chek qo‘yilmasa, ma’naviyatimizga, urf-odatimizga dog‘ tushiradi.

Afsuski, hali-hanuz g‘arbcha nikoh marosimlariga, behayo kiyim kiyib suratga, kinoga tushish kabi yangicha bid’atlarga ruju qo‘yayotgan yoshlarimiz oz emas. Ular ma’naviyati sayozligidan shunday qilishadi... Oynai jahonda urush kinolari, qon to‘kish, o‘ldirish – bizga shu kerakmi? Bu borada, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, Badiiy kengashlar ishini risoladagidek yo‘lga qo‘ymog‘imiz zarur.

Ular talabni kuchaytirib, sayoz mahsulotlarning xalqqa taqdim etilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Yurtboshimiz juda chiroyli qilib, “amal ishlash uchun beriladi”, deb ta’kidladi.

Ha, ishlash, ishlaganda ham jon kuydirib, vijdonan, halol ishlashning vaqtি keldi. Bu ijodiy tashkilotlar, teatrlar, uyushmalarning rahbarlariga ham tegishli gap.

Davlat rahbari umumiy topshiriqlarni berishi mumkin. Lekin uni kim bajaradi? Qarang, moliyaviy masalalar hal etilayotgan bo‘lsa, yashash sharoiti yaxshilanayotgan, qalam haqi oshirilayotgan va soliqdan imtiyoz berilayotgan, ijodkorlar pensiyasini ham to‘liq oladigan bo‘lsa, yana nimani qilib berish

kerak?! Agar quyி bo‘g‘indagi rahbarlar sustkashlik qiladigan bo‘lsa, ko‘p yaxshi tashabbuslar qog‘ozda qolib ketmaydimi? Ularning endi jon kuydirib ishlaydigan vaqtি keldi va biz Prezidentimizning e’tibori va ishonchiga munosib bo‘lishimiz kerak.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ko‘plab ijtimoiy sohalarning tubdan modernizatsiya qilinishi, ijtimoiy turmush darajasining o‘sishi yoshlarning yangidan-yangi ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarga bo‘lgan talablarini oshishlaridan kelib chiqib bugungi kundagi vazifalarni bugun qilish kerakligi ertaga kech bo‘lishi ijodiy jamoalarda ham yaqqol ko‘rinishi kerakligi dolzarbliги bilan ahamiyatli.

Ushbu bitiruv ishida barcha ijodiy jamoalar o‘zlarning faoliyatida ko‘plab ijodiy ishlarning yangidan yangi qirralari va ijodning haqida ta’sirchanligi va tarbiyaviy masalalarni ham ogshirish kerakligi kerak bo‘lsa xorijiy va tarixiy tajribalarning o‘zimizga xos va o‘zimizga mos jihatlarini ijodga tadbiq etish kerakligi haqida misollar keltirilgan.

Yoshlarda vatanga muhabbat va komilinson tarbiyasining aks etishida ijodiy jamolarning har qanday ko‘rinishdagi ijodiy faoliyatining ahamiyati katta va eng dolzarb masala ekanligini biz yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan fikr mulohazalar, ko‘rsatmalar, davlat qarorlari va sohaga oid nizomlar, ilmiy izlanishlar va boshqa meyoriy hujjatlardan kelib chiqib xulosalar chiqarildi.

GLOSSARY

Badiiy o`qish – san’atning bir turi, adabiy (she’riy, nasriy, dramatik) asarni omma oldida og`zaki ijro etish.

Garderob – muassasa va teatrlarda kiyimlar yechib qo`yiladigan va saqlanadigan maxsus bo`lma, kiyimxona.

Ijodiy ishlab chiqarish – bu inson bilimi, qobilyati, est’edodi, tasavvuri hamda tajribasiga tayangan holda yaratilgan jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo`lgan boyliklarni yaratish jarayonidir. U turli hil ko`rinishda bo`lishi mumkin. Masalan, jamiyat tomonidan olingan yangi bir g`oya, ssenariy, asar, spektakl, kino yoki teleko`rsatuv, radioeshittirish, qo`shiq, turli hil shouilar va hakazolar.

Ommaviy sahna – pe’sa davomida olamon, xalq, omma kabilarni aks ettiruvchi, ishtirokchilarning soni ko`p bo`lgan sahna ko`rinishi.

Estrada – sahna san’atining musiqa, ashula, raqs, badiiy o`qish, foks, akrabatika, parodiya va shu kabilarni o`z ichiga olgan kichik turi.

Havaskorlik teatri – teatr san’ati bilan asosiy mashg`ulotlardan tashqari shug`ullanadiganlar teatri.

Maddiy ishlab chiqarish – jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo`lgan moddiy ne’matlarni yaratish jarayoni hisoblanadi.

Komediya – ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni, kishilardagi yomon hususiyatlarni kulgu vositasi bilan fosh etuvchi quvnoq, hushchaqchaq harakterdagi dramatik asar.

Kulminatsiya – biror voqeа yoki xodisa rivojlanishidagi eng yuqori nuqta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari
 - 3.1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 14 fevraldagи F-4849 Farmoni.
 - 3.2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son Qarori.
 - 3.3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018 yil 5 apreldagi Qarori.
 - 3.4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalqaro maqom san‘ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2018 yil 6 apreldagi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari
 - 4.1.Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevraldagи “2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida bu
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

5.1.Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi, “Xalq so‘zi”, 2017 yil 16 yanvar.

5.2.Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olıyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017.

5.3.Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017.

5.4.Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017 yil

5.5.Sh.Mirziyoyev. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, “Xalq so‘zi”, 2017 yil 4 avgust.

5.6. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. Toshkent. “Ma’naviyat”, 2011.

5.7. I.Karimov. Milliy mafkura haqida . – T., 2000.

5.8. I.Karimov. Ma’naviy yuksalish yo’lida. – T., 1998.

5.9. I.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.

Asosiy adabiyotlar

6. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi boyicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o’rganish boyicha ilmiy-uslubiy risola. Toshkent ,“Ma’naviyat”, 2017.

6.1 Harakatlar strategiyasi va ma’naviy yuksalish. Azamat Haydarov.G’afur Gulom nashiryot.Toshkent-2018.

6.2. O’. Nosirov. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish.(O’quv-uslubiy qo’llanma) Toshkent-2014.

6.3. Mansur Bekmurodov, Qahramon Qurbonboyev, Laziz Tangriyev.”Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari”. G’afur Gulom nashiryoti.Toshkent-2017.

6.4. Abdusalom Umarov, Mansur Bekmurodov. Madaniyat va san’at atamalarining izohli lug’ati.G’afur G’ulom nashiryoti.Toshkent-2015.

6.5. Sh.To’rayev.Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va uni tashkil qilish metodikasi.”Paradigma” Toshkent-2017.

6.6. B.Sayfullayev, V. Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati.Fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi.Toshkent-2016.

6.7. U.Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. T. 2000.

Qo’shimcha adabiyotlar

7.1. “O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi”, 1994 y.

7.2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

7.3. “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2017-yil 4- avgust

7.4. Alisher Navoiy. Hikmatlar.Toshkent, 2014-yil.

7.5. Falsafa qomusiy lug’at.Toshkent-2004.

7.6. Ma’rifat gazetasi.2015-yil.19-sentabr.

Internet saytlari

8. www.ziyonet.uz.

8.1. Google.uz,

8.2. Uza.uz,

8.3. lexus uz,

8.4. Xabar.uz,

8.5. darakchi uz,

8.6. Sovminrk.gov.uz,

8.7. daryo.uz,

8.8. Huquqiy axborot telegram kanali.

ILOVALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 15 avgustda “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Hujjat matni O‘ZA saytida

Qarorga ko‘ra, O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi faollar kengashining O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasini O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi sifatida qayta tashkil qilish haqidagi qarori ma’qullandi.

Quyidagilar O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

xalqimizning estetik talab va ehtiyojlarini har tomonlama hisobga olgan holda, zamonaviy ruhdagi badiiy yuksak asarlar yaratish, katta musiqiy asarlar, jumladan, opera, simfoniya, konsert va oratoriya kabi mumtoz janrlar rivojiga alohida e’tibor qaratish;

yosh kompozitorlar, bastakorlar va musiqashunoslar, barcha ijrochilarning ijod bilan samarali shug‘ullanishlari uchun imkoniyat va sharoitlarni kengaytirish;

mamlakatimizning madaniy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish, davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, ijodiy uyushmalar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda musiqa san’ati sohasida ijod qilayotgan barcha ijodkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, musiqiy ta’limtarbiya sohasini takomillashtirish, mumtoz va zamonaviy musiqa san’atini targ‘ib qilish jarayonlarida faol ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan ijodiy hamkorlikni kuchaytirish, turli ijodiy tanlovlari o’tkazish, bastakorlar ijodini rag‘batlantirishga qaratilgan konsertlar, festivallar, ijodiy kechalar va boshqa madaniy-ma’rifiy, ommaviy tadbirlarni tashkil etish;

Xalqaro madaniy va musiqiy hamkorlik doirasini kengaytirish, yosh kompozitor, bastakor va musiqashunoslarni zamon talablari darajasida tayyorlash, chet davlatlardagi taniqli kompozitorlar va musiqashunoslari bilan o‘zaro tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish;

O‘zbekiston davlat konservatoriyasida soha vakillari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Nizom talablari asosida Uyushma a’zolari safini yosh iste’dodli kompozitor va bastakorlar, musiqashunoslari bilan to‘ldirib borish.

O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq; Qoraqalpog‘iston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq ma’qullandi.

Uyushma va uning hududiy bo‘limlarining faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash, shuningdek, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish manbai etib O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondi mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar belgilandi.

Bu borada Uyushma va uning hududiy bo‘limlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan Fondga ajratiladigan byudjet mablag‘lari (subsidiya) hisobidan qoplanishi nazarda tutiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Uyushma hududiy bo‘limlarining aniq manzillar bo‘yicha joylashtirilishini ta’minlaydi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Uyushma a’zosi bo‘lgan faol kompozitor va bastakorlar, musiqashunoslarni imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joy yoki yer uchastkalari bilan ta’minlash bo‘yicha tegishli choralarini ko‘radi.

“Asakabank” aksiyadorlik tijorat bankining O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining “Do‘sstar klub”ga rahbarlik qilish yuzasidan bildirgan tashabbusi ma’qullandi. “Asakabank” aksiyadorlik tijorat bankining O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi bilan birgalikda Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 69-uyda joylashgan Uyushma binosini ta’mirlash, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha atoqli namoyandalarining elektron arxivini va maxsus fonoteka, ovoz yozish studiyasi hamda “Musiqa ijodkorlari” muzeyini tashkil etishda homiylik yordami ko‘rsatish haqidagi taklifi qo‘llab-quvvatlandi.

Uyushma tavsiyasi bilan uning faol a’zolarini xorij davlatlariga malaka va tajriba almashish uchun Fond hisobidan xizmat safarlariga yuborish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.Sultonov zimmasiga yuklandi.





